

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Himoyaga tavsiya etilsin»**

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ dots. Xo`jamqulov B.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012- yil

**QASHQADARYO HAVZASIDA JONSIZ TABIAT  
YODGORLIKLARINI MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Imiy rahbar:**

**Talaba:**

**dots. A.Mamatov**

**Boymurodov Sami**

**«Himoyaga tavsiya etildi»  
Geografiya kafedrası mudiri**

\_\_\_\_\_ **dots. Janqobilov I.X.**

**2012-yil «\_\_» \_\_\_\_\_**

**Qarshi – 2012 yil**

## **KIRISH**

### **I BOB QASHQADARYO HAVZASINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI VA TABIATDAN FOYDALANISH JARAYONIDA TABIIY KOMPLEKSLARNING O'ZGARISHI**

- I.1. Qashqadaryo havzasining tabiiy geografik tavsifi
- I.2. Qashqadaryo havzasida tabiatdan foydalanishning hozirgi holati va tabiiy komplekslarning o'zgarishi

### **II BOB QO'RIQLANADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY MAQOMLARI VA ULAR TIZIMIDA TABIAT YODGORLIKLARI**

- II.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tarixidan
- II.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy maqomlari va ularning turlari
- II.3. Qashqadaryo havzasining tabiat yodgorliklari ularni tavsiflash hamda havzada geografik tarqalish xususiyatlari
- II.4. Jonsiz tabiat yodgorliklari ularning turlari
- II.5. Tabiat yodgorliklarini ilmiy, ma'rifiy va ekoturistik ahamiyati

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

Tabiatni muhofaza qilish umumsayyoraviy muammosining eng zaruriy shartlaridan biri qo'riqlanadigan obyektlarni insonni xo'jalik faoliyati iste'molidan chiqarishdir. Qo'riqlanishi lozim bo'lgan tabiiy obyektlarning quruqliklarda ham suv havzalarida, shuningdek, suv havzalari bilan quruqliklarning tutash hududlarida ham tashkil etish bugungi davrning eng dolzarb muammosi hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonning tabiatidan oqilona foydalanish tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalar davlat siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Atrof muhitni muhofaza qilish uni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish masalalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida alohida ko'rsatib o'tilgan. Asosiy qonunimizni 49-moddasida "Yer-suv yer osti boyliklari va boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik va ular davlat muhofazasidadir" deb belgilangan. Tabiatni muhofaza qilish tizimida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil etish eng muhim masala hisoblanadi. Chunki insonning hayoti va xo'jalik faoliyati ilmiy texnikaning muttasil jadal sur'atlar bilan taraqqiy etib borishi sayyoramiz aholisi sonining ortib borishi tabiatga bo'ladigan ta'sirni tobora chuqurlashtirib boraveradi. Inson va tabiat munosabatlarida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Chunki tabiiy resurslardan foydalanish hajmi tobora ortib kengayib boraveradi. Inson va tabiat munosabatlarining shu tahlidda chuqurlashib borishi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish masalasini butun insoniyat oldida tezlik bilan hal etadigan masala qilib qo'ydi. Shunday umuminsoniy vazifalardan kelib chiqib, amalga oshirilishi zarur

chora tadbirlar tizimida qo'riqxonalar rezervatlar, milliy tabiat bog'lari, buyurtma qo'riqxonalar (zakazniklar) singari vazifaviy ko'lami keng tabiat andozalarini tashkil etish bilan birgalikda kichik maydonlardagi landshaftlarni yoki ayrim tabiat yodgorliklarini ham tabiat yodgorliklari sifatida davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilib o'rganish va muhofaza qilish g'oyat muhim kelajakni ko'zlab ish qilish vazifalaridan biri.

Ma'lumki, qo'riqxonalar milliy tabiat bog'lari umumsayyoraviy umumdavlat yoki mintaqaviy ahamiyatga molik qo'riqlanadigan muassasalardir. Bunday yirik muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish ko'pdan-ko'p huquqiy moliyaviy masalalar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli tabiati jiddiy o'zgarishga uchrayotgan har qanday kichikroq maydonlarda ham qo'riqxonalar yoki milliy tabiat bog'i tashkil etish maqsadga muvofiq emas mitti qo'riqxonalar bo'lgan landshaft maydonlari yoki alohida tabiat obyektlarini kelgusi avlod manfaati uchun inson xo'jalik faoliyatidan chiqarish uchun esa viloyat tabiatni qo'riqlash qo'mitasi tasdiqiga asosan tuman kengashi yoki qishloq fuqarolar yig'inining qarorlari asosida jamoatchilik tomonidan muhofazaga olinishi mumkin. 2004-yilda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Tabiiy obyektlar maxsus vakolatli organi taqdimnomasi, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyat organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi" (27-modda). Qashqadaryo viloyatining tabiati shu darajada rang-barang va jozibadorki viloyatning 28,4 ming kv. km. ga ega bo'lgan maydonda bir vaqtning o'zida yilning to'rt faslini yonma-yon uchratish mumkin, boshqacha aytganda 200-250 km. lik masofada qumli cho'l lyoss qoplamli

qir-adir, qalin tog' o'rmoni tog' yaylovi abadiy muzliklar va ular bilan yonma-yon noyob tabiat obyektlarini uchratish mumkin. Ammo nihoyatda betakror ilmiy-ma'rifiy o'zi haqida sayyoramiz tarixidan hikoya qiluvchi bunday tabiat obidalari to'liq ravishda tavsiflanmagan.

“Qashqadaryo havzasida jonsiz tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish masalalari” mavzusidagi **bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi**. Qashqadaryo havzasi uzoq geologik tarixi va yaqin o'tmishining taraqqiyoti haqida ma'lumotlarni o'zida mujassamlashgan hamda hozirgi rang-barang betakror tabiatining maftunkorligini ko'rsatuvchi jonsiz tabiat yodgorliklarini o'rganish va ularni eng muhimlarini tabiiy geografik tavsifini tuzish shuningdek tabiat yodgorliklarini ilmiy amaliy maqsadlarda foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqarishda ifodalanadi. Bitiruv malakaviy ishning obyekti Qashqadaryo havzasini tekislik adir va tog'li mintaqalaridagi tabiat yodgorliklarini o'rganish masalalari mavzusidagi ishning predmeti davlat tabiat yodgorliklari deb qo'riqlanayotgan geologik, geomorfologik, paleontologik mineralogik, gidrologik noyob ilmiy ma'rifiy ahamiyatli obyektlarni o'rganish. Maqsadi Qashqadaryo havzasida mavjud bo'lgan 100 dan oshiq davlat tabiat yodgorliklarining eng muhimlari xususan tog' daralari geologik ochilmalarni batafsil tabiiy geografik tavsifini tuzish. Jonsiz tabiat yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishimizning vazifasi Qashqadaryo havzasining tekislik qismidagi sho'rxoklar kesrofid o'simliklar bilan mustahkamlangan qum tepalari noyob cho'llandshaftli maydonlar adirlardagi geologik ochilmalar tog'lar orasidagi daryo tanglari g'orlar va boshqa davlat tabiat yodgorliklari sifatida ro'yxatga olingan ayrim tabiiy obyektlarni chuqur o'rganish. G'orlarning plan va kesmalarini

chizmalarda ifodalash tabiat obyektlarining sayohatboblighi ekoturizmga yaroqligi haqidagi ma'lumotlarni ta'riflash shuningdek, Davlat tabiat yodgorliklarining tashkil etilishi ularning rejimi ulardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy jihatlar xususida fikr yuritish "Qashqadaryo havzasining jonsiz tabiiy yodgorliklarini o'rganish" mavzusidagi **bitiruv malakaviy ishning yangiligi** havza hududidagi ilmiy ma'rifiy axboriy ahamiyatli geologik mineralogik paleontologik ayniqsa noyob betakror AQSH dagi katta Kanyonni eslatuvchi tog' darajalarining davlat tabiat yodgorliklari bo'lishining ilmiy jihatdan asoslash va ulardan ekoturizmga foydalanish bilan bog'liq masalalar. Qashqadaryo havzasining tekislik cho'l voha qiradir past tog'lar o'rtacha balandlikdagi tog'lar va baland tog'lar mintaqalarining boshqa xuddi shunday tekislik tog'li hududlardan farq qiladigan o'ziga xos tabiiy xususiyatlarining jonsiz tabiat yodgorliklarida ifodalangan tabiiy qirralarini o'rganish orqali biz bo'lg'usi umuman tabiiy fanlardan dars beruvchi o'qituvchilik faoliyatimizda katta ahamiyatga ega bo'ladi deb o'ylaymiz albatta. O'zbekiston fuqarolarini o'z vataniga muhabbat, tabiatsevar kishilar qilib tarbiyalashda bu qilgan ishlarimiz ahamiyatli bo'ladi.

# I BOB. QASHQADARYO HAVZASINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI VA TABIATDAN FOYDALANISH JARAYONIDA TABIIY KOMPLEKSLARNING O'ZGARISHI

## 1.1. Qashqadaryo havzasining tabiiy geografik tavsifi

Qashqadaryo havzasi O'zbekistonning janubida, shu nomli daryo havzasida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyo deb yuritiluvchi yirik tabiiy geografik o'lkaning markazidan sal janubroqda 37 gr. 58' bilan 39 gr. 32' shimoliy kenglik va 64 gr. 23' bilan 67 gr. 42' sharqiy uzunliklar orasidagi hududlarni ishg'ol etadi.

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,4 ming kv. km. bo'lib, hududining kattaligi bo'yicha O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasi (166,6 ming km<sup>2</sup>.) Navoiy (110,8) va Buxoro (40) viloyatlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasi maydonining atigi 7% ini egallaydi.

Qashqadaryo viloyati 795 km. uzunlikdagi chegaraga ega, shundan 405 km. tog'lar, 390 km. tekisliklar orqali o'tadi. G'arbdan sharqqa 293 km, shimoldan janubga 195 km. masofaga cho'zilgan. Shimolda Qashqadaryo viloyatining Samarqand viloyati bilan chegarasi Zarafshon tizmasining Chaqilkalon Qoratepa, Ziyovuddin-Zirabuloq tog'lari va ular orasidagi Jom va Qarnob cho'lining to'lqinsimon tekisliklari orqali o'tadi. Sharqda Tojikiston Respublikasining Leninobod viloyati bilan Hisor tizmasi orqali chegaradosh bo'lib, Sarhad chizigi respublikaning eng baland tog'i – Hisor tizmasining qirradi, uning tarmoqlari Chaqchar va Boysuntog' suvayirg'ichi, so'ngra janubi – g'arbda SHo'rob botig'i, Suvsiztog' va Ko'hitangning qirradi bo'ylab o'tadi. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston Respublikasi bilan eng uzun chegaraga ega. Ko'hitangning g'arbdagi

davomi bo'lgan Dehqonobod past tog'lari, janubda Nishon adirlari – Saksondara, Olovuddintog' va Qarshiqiya tekisligi, Sandiqli qum cho'li, Qashqadaryo va Chorjev viloyatlari sarhadlarini bir – biri bilan tutashtiradi. Qarshi dashtining Dengizko'l, Jarqoq, Setalantepa qirlari va Qarnob cho'li kabi g'arbdagi yerlari Buxoro va so'ng Navoiy viloyatlariga kirib boradi.

Qarshi cho'lining o'zlashtirishda start maydonchasi vazifasini o'tash maqsadida barpo etilgan Talimarjon shahrining nomi asli Turkmanistondagi temir yo'l bekatining nomidir. Qarshi bosh kanali va uning asosiy obyektlari shu qo'shni respublika hududida joylashgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari respublikaning janubiy hududi deb yuritiladi. Qarshi shahridagi neft va gaz konlarini qidiruvchi va ishga tushuruvchi idora butun respublika hududidagi shunday ishlarning bosh mutasaddisidir. Bundan 2000 yil oldin qazilgan Manas ( Eski Anhor, Moskva nomli ) arig'i Samarqand qiloyatidagi Darg'om anhorining janubidagi tarmog'idir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatining geografik o'rnini bu hududda faqat O'zbekiston va O'rta Osiyoga xos tabiat majmualarigina emas, balki Markaziy Osiyo, Sibir, Sharqiy Yevropa, Kavkazorti, Kichik Osiyo, O'rta dengizbo'yi, Eron, Afg'oniston, Hindistonga xos o'simlik va hayvonot vakillarini tarqalishiga sabab bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati hududi qadim – qadimdan turli sayyoh fotik, tadqiqotchi va olimu – fozillarning e'tiborida bo'lib kelgan. Bu hududda o'tkazilgan arxeologik tekisliklar hamda tarixiy va adabiy manbalar bu fikrni isbotlaydi.



Qashqadaryo viloyatining sharqiy chegarasi yaqinida, Hozirgi Boysun tumanida Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal odam qoldiqlari va shimolida Urgut tumanining Omonqo'ton qishlog'i yaqinida ochilgan qadimgi tosh davri manzili Janubiy O'zbekiston ibtidoiy odam shakllangan hudud ekanligini ko'rsatadi. Sherobod tumani Qashqadaryo tutash Zarautsoy kamari devoridagi tosh bitiklar ov manzaralari ham bundan yuz ming yillar ilgari bu o'lkada inson ajdodlari yashaganligidan dalolatdir. Janubiy – G'arbiy O'zbekiston haqidagi yozma manbalarning dastlabki bundan yigirma tsh\o'rt asr oldingi qadimgi yunon va Rim olimlaridan Arrian Kvint, Kurtsiy Pruf asarlaridir.

Yozma va arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Hozirgi Qashqadaryo Havzqsida XI – XII asrlarda Nasaf va Kesh kabi ikki viloyat vujudga kelgan.

Abu Sad as – Samoniy, Yoqut Hamaviy, Ibn Hovkal vaboshqa olimlarning arab tilidagi asarlarida hozirgi vilotimizdagi yirik shahar va qishloqlar, ularning bir – biridan uzoqligi, geografik o'rni, iqtisodiy ahamiyati xususida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Darhaqiqat, qiloyatda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida sug'orish inshoatlarining qurilishi munosabati bilan keyingi 30 - 40 yilda arxeologik tadqiqotlar keng ko'lamda olib borildi. Vohada xo'jalik va ma'daniyat ancha yuqori bo'lganligi haqidagi o'rta asr sayyohlarining yozma fikrlarini arxeologik manzillarda olib borilgan qazilmalar ham tasdiqlaydi.

Qashqadaryo havzasini nihoyatda rang – barang tabiiy sharoiti bilan ta'riflanadi. Qashqadaryo havzasi hududida O'rta Osiyo tabiatiga xos bo'lgan barcha landshaftlarni uchratish mumkin. Ko'chma qumtepali maydonlar, keng yastanib yotgan tekisliklar. Bu tekisliklar orasida

ko'tarilib turgan tanho tog' qirlar, sho'rxok berk botiqlar, qadimiy sug'orma yassi tekisliklar, adirlar, o'rtacha va baland yon bag'rlari archa o'rmoni bilan qoplangan tog'lar, tog' tizmalarini kesib o'tgan juda chuqur daryolarining daralari, mangu qor muzliklar bilan qoplangan baland tog'lar kabi bir – biri bilan ketma – ket almashinuvchi landshaft komplekslari viloyat tabiatining xilma – xil ekanligini ko'rsatadi. Bu sanab o'tilgan landshaft komplekslari janubi – g'arbdan, shimoli – sharq tomon viloyat hududi doirasida bir – biri bilan almashinadi. Bu hududda tadqiqot ishlari olib borgan yoki bu hudud orqali o'tgan sayohatchi yoki nomi tarixda qolgan siymolarning yozma ishlarida Qashqadaryo havzasi tabiatining beqiyos xilma – xilligi ta'kidlab o'tilgan.

Shunday rang – barang tabiatga ega bo'lgan landshaftlarida XX – asrning 2 – yarmidan boshlab jiddiy o'zgarishlar ko'rina boshladi. Ayniqsa 932 ming gektar sug'orish uchun yaroqli yerlarga ega bo'lgan Qarshi cho'lining 300 ming gektardan oshiq maydoni dehqonchilikka tortilishi munosabati bilan tabiat komplekslarida salbiy tomonga o'zgarish ko'paya boshladi. Yuz ming yillar mobaynida shakllangan tabiat komplekslarida salbiy tomonga o'zgarish ayrim o'simlik va hayvon turlarini kamayishi bu hududda umuman o'smaydigan begona o'tlarning va zararkunanda hashoratlarning ko'payishi, yerlarning sho'rlanishi, tuproq usti qismining yemirilishi, sug'orish shaxobchalari va kollektor – zavur atroflarida jar eroziyasining kuchayishi va boshqa holatlarda namoyon bo'lgan tabiatni komplekslarining o'z – o'zini boshqarish va tiklash xususiyatini mumkin qadar saqlab qolish masalasini ko'ndalang qo'ydi.

Qo'riqxonalar va biologik buyurtmalar katta maydonlarni egallagan umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan maydonlardagi komplekslarning

tabiiy rivojlanishiga antropogen ta'sirning bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun tashkil etilishi ko'pchilikka ma'lum. Bundan avlodlarga o'zgartirmay tabiiy holatda, asrab yetkazishga loyiq komplekslar viloyatning Hisor tog'lari yon bag'irlarida joylashgan.

Hisor tizmasining tabiiy go'zalligini o'zida saqlab qola olgan g'arbiy tarmoqlarida Hisor tog' archa, Kitob geologik qo'riqxonalarini tashkil etilgan. Avvalo o'simliklar so'ngra hayvonot va boshqa tabiat komponentlarini saqlash, ko'paytirish hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun viloyat tog'li mintaqasida Kitob, Qamashi, Dehqonobod tekisliklarda qum daryo, Qarshi, Muborak, Koson, Kasbi o'rmon xo'jaliklari barpo etilgan. Insonning xo'jalik faoliyati nihoyatda shiddatli tus olgan hozirgi davrda bunday daxlsiz quruqlanadigan tabiat muassalarini hamma joyda ham tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Chunki bular katta mablag' va ishchi kuchi resurslarini talab qiladi. Shuning uchun muayyan ilmiy, tarixiy, ma'rifiy ahamiyatga molik kichik maydonlarni egallagan diqqatga sazovor landshaft kompleksi yoki ayrim komponentlarni tabiat yodgorligi sifatida muhofaza qilishi va avlodlarga yetkazish muhim maqsaddir.

Rang – barang tabiatga ega bo'lgan tabiat boyliklari ishlab chiqarishga joriy etilayotgan Qashqadaryo viloyatida tabiat obidasi deb saqlanishga arzigulik obyektlar nihoyatda ko'p. Qoya, sharshara, g'or, buloq, sho'rxok daryo tog'isi go'zal manzarali landshaft uchastkasi, geologik ochilma, inson tomonidan ajratilgan muayyan ma'rifiy ahamiyatli tabiiylashib ketgan quduq, koriz, sardoba qadimgi konlarning bir bo'lagi tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinishi mumkin. Qashqadaryo viloyatining zamini murakkab geologik rivojlanish jarayonini boshidan kechirgan. Eng

qadimgi jinslar Hisor tog'larining Tankoz va Yakkabog'daryo oralig'idagi tokembriy kvartsit va metamorfik slanetslaridir. Maskara, Chakmanqo'ydi va Arratosh qirralari qoyalardan tashkil topgan bu tog'lar Beshnov massivi deb yuritiladi. Uning negizi paleozoy erasigacha bo'lgan metamorfik jinslar majmuasidan iborat. Juda qattiq, kristallashgan ushbu jinslarning yoshi taxminin bir milliard yilga teng. Qashqadaryo havzasini shimoliy va shimoli – sharq tomondan o'rab turgan. Zarafshon va Hisor tog'lari paleozoy erasining cho'kindi, magmatik va metamorfik jinslaridan iborat. Ordovik, silur va devon davrlarida bu hudud dengiz bo'lgan, uning ohaktosh, qumtosh, giltosh tarkibli hosilalari bu davrlardan keyin ro'y bergan gertsin tog' burmalanishi natijasida metamorflashgan. Shertog' va Sumsar tog'lari Jinnidaryo bilan Oqsuv daryosi orasida yastangan bo'lib, ular paleozoy erasining deyarli, barcha davrlariga mansub umurtqasiz hayvon qoldiqlari g'oyatda yaxshi saqlangan cho'kindi va metamorfik ohaktosh qatlamlaridan tuzilgan. Dengiz umurtqasizlarining bunday bus – butun saqlanishi jahon startigrafiyasida favqulodda noyob hodisadir. Endilikda Kitob geologik maydon paleozoy erasining taraqqiyot tarixi uchun andoza (etalon) sifatida tan olingan. Zarafshon tog'lari gertsin tog' hosil bo'lishida shakllangan. Intruziv mavmatizm hosilasi bo'lgan granit va granitsimon jinslar cho'kindi va metamorfik jinslar bilan o'zaro chatishib ketgan qirrali qoyalar va geologik ochilmalarda muhrlangan.

Hisor tizmasining janubi – g'arbiy tarmoqlari bo'lmish Osmontarosh tog'lari karbon va perm davrlarining intruziv va effiziv magmatik jinslardan tarkib topgan. Osmontarash shimoli sharqdagi Hazrati Sulton tog' massivi silur va devon davrlarining kristalli ohaktoshlaridan tuzilgan. Viloyatning tog' va tog' oldi qismi yura va bo'r davrlarining dengiz

yotqiziqlaridan iborat. Hisor tizmasi avval gertsin va so'ng, alp orogenezida burmalangan. Hisorning viloyat hududidagi qismi yura davri iliq dengiz mahsulotlari ohaktosh va gips – angidritli jins majmualaridan tashkil topganligi bunga ishoradir. Chuqur daralar, katta – kichik g'orlar ko'plab uchraydigan bu tog'larda tog' etagining dengiz sohiliga tutashgan tekisliklarda denozavrlar yashaganligi aniqlangan. Shuningdek, bo'r davriga mansub gips, mergel, ohaktosh, qum tosh va giltoshlar Dehqonobod past tog'larining asosiy zaminini tashkil qiladi. Kaynozoy erasining paleogen davrida bu maydonlar o'rtacha sayozlikdagi iliqroq dengiz bilan qoplangan edi. Chunki bunday sharoit hosilasi bo'lgan paleogen davri Buxoro geologik asri chig'anoqli ohaktoshlar aksariyat kichik tog' tizmalarining yadroviy zaminini tashkil etadi. Endilikda o'ziga xos yemirilishiga namoyil g'oyali va assimetrik kichik tizmalar sifatida namoyon bo'lgan chig'anoqli ohaktosh tog' – qir silsilasi bu joy relefining harakaterli xususiyatlaridir.

Qashqadaryo viloyatining tog' oldi mintaqasi – adirlar siniq – chaqiq jins qatlamlaridan tashkil topgan bo'lib, ular neogen davri dengiz va quruqlik o'zaro ta'sir jarayonining natijasidir. O'rta Osiyo tog' oldi relefining o'ziga xos shakllari bo'lgan adirlar yuzasi to'rtlamchi davr lyoss va lyossimon yotqiziqlari bilan qoplangan. Kontinental hosilalar bo'lmish adir zaminidagi konglomeratlarning qalinligi 100 m gacha yetadi.

Qashqadaryo havzasining tekislik qismi to'rtlamchi davrning turli geologik asrlarida vujudga kelgan daryo yotqiziqlari shamol faoliyati natijasida to'zg'igan, qum va gultoshlar bilan qoplangan. 10 – 15 metr qalinlikdagi bu qoplam tagida paleogen, bo'r va yura davrlariga mansub dengiz giltoshlari va qumtoshlarining qatlamlari joylashgan. Qizil ko'k va

jigarrangdagi giltoshlar tagida o'rtacha 800 – 1000 metr chuqurlikda yura davri marjonli ohaktoshlari, shuningdek, ayrim joylarda gips, angidrit, toshtuz qatlamlaridan iborat yotqiziqlar joylashgan. Xususan gorizontal qatlamlarni tashkil etuvchi bu jinslarning majmualari Qo'ng'irtog', Kosontog', Maymanoq tog' kabi tektonik tuzilmalarning yer yuzasiga yorib chiqqan burmalarida to'liqinsimon relief bo'lishining sababi ham shundadir. Bu tog' – burmali tuzilmalar zaminini asosan yura, bo'r va paleogen dengiz cho'kindilaridan iborat.

Qashqadaryo viloyatining reliefi g'arbdan sharqqa asta – sekin balandlashib boradi.

Qarshi qiya tekisligining Dengizko'l botig'i bilan tutash joyi dengiz sathidan 280 m baland bo'lsa, sharqda Hisor tog'larida balandlik 4000 m dan oshiq.

Ma'lumki, yer yuzasining hozirgi qiyofasi geologik taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ana shu bog'likni hamda hozirgi relief hosil qiluvchi jarayonlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda Qashqadaryo viloyati hududida 3 ta relief mintaqasini ajratish mumkin.

1. Tekislik reliefi mintaqasi.
2. Tog' oldi (adir) reliefi mintaqasi .
3. Tog' – burmali relief mintaqasi.

Tekislik reliefi 280 - 650 m oralig'idagi gipsometrik pog'onadagi Qarshi qiya tekisligi va Kitob – Shahrisabz botig'ini o'z ichiga oladi, maydoni bo'yicha viloyatning asosiy qismini ishg'ol etadi. Qarshi qiya tekisligi Qizilqumning janubiy – sharqiy chekkasi hisoblanadigan Sandiqli qumli cho'l bilan Zarafshon va Hisor tog'larining etaklariga tutashib ketgan qariyb 1,3 mln. ga maydondagi tekisliklardir. Bu yerda bir – biridan ancha farqlanuvchi

uch xil relef tarqalgan. Tekislikni katta qismini lyosli jinslar qoplagan maydonlar tashkil etadi. Ayni paytda deyarli batamom o'zlashtirilgan sug'orma dehqonchilik massivlari viloyat markazidan janubi – g'arb va Koson shahridan shimoli – g'arbda yastanib yotibdi. Qashqadaryo o'zaniga tutash joylarda ariqlar va zavurlar yaqinidagi maydonlarda eroziya tufayli jarlar paydo bo'lgan. Darvoqe, tekis relefli maydonlarning deyarli barcha qismi o'zlashtirilishi tufayli shaxobchali (irrigatziya) eroziya, sho'rlanish, botqoqlashish, shamol eroziyasi kabi nomaqbul jarayonlar paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Tekislik relefida inson tomonidan qadimda barpo etilgan tepaliklarning tez – tez uchrashi ham relefning muhim belgilaridandir. Tekislik ko'pgina hollarda katta-katta maydonlar kuchli sho'rlangan botiqlar bilan qo'shilib ketadi. Beshkent shahridan janubdagi Chorog'ul, Muborak shahridan shimoldagi SHO'rsoy, Sandiqlining shimolidagi Dengizko'l botiqlari shular jumlasidandir. Absolyut balandligi 300 – 400 m bo'lgan tekisliklar ichida vujudga kelgan bu botiqlarning nisbiy chuqurligi 20 – 40 m va shu boisdan ular botqoqlangan sho'rxoklar sifatida atrofdan ajralib turadi. 45 – 90 m nisbiy balandlikdagi supasimon (platosimon) qirlar ham taroshlangan shakllangan shakllarga ega. Lyosli jinslar bilan qoplangan yassi yuzali maydonlar qumtepa marjonlari, katta – kichik ko'chma qumli massivlari bilan almashinib turishi ham Qarshi cho'li relefi uchun asosiy xususiyatlardandir. G'arbda Kitob – Shahrisabz botig'i va sharqda Hisor tizmasining janubiy – g'arbiy tarmoqlari – Yakkabog' tog'lari adir mintaqasi yastanib yotibdi.

Tog' oldi qirlari – adirlar g'arbdan sharqqa 600 m dan 1500 m gacha ko'tarilib boradi. Shu yo'nalishda Qashqadaryo adirlari polosasining eni 8 – 18 km ga teng. Miroqi adirlari Qashqadaryo, Oqsuv Jinnidaryolarning

o'rtacha oqimida joylashgan bo'lib, sharqda o'rtacha balandlikdagi Sumsar va Shertog' massivlari bilan bilinar – bilinmas tutashib ketgan. Tanxozdaryo, Yakkabog'daryo, Guldarasoy va Langar daryo havzalarida anchagina keng maydonlarni egallab yotgan Yakkabog' adirlari tog' va tekisliklar oralig'ida yaqqol ajralib turadi.

## **1.2. Qashqadaryo havzasi tabiatidan foydalanishning hozirgi holati va tabiiy komplekslarning o'zgarishi**

Inson o'zining hayotiy ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i, energiya xom ashyolarini mehnat faoliyati orqali tabiatdan oladi. Shu boisdan tabiat va uning resurslari insonning hayotiy hamda xo'jalik faoliyati uchun asosiy manbadir.

Tabiiy resurslar biror-bir tabiat hodisasiga mansubligi, foydalanishga va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi va tasnif qilinadi.

Tabiiy resurslar tugaydigan va tugamaydigan resurslarga bo'linadi. Tugamaydigan resurslarga suv iqlim va kosmik resurslar kiradi. Bu resurslardan qancha foydalanilganda ham ular miqdori tugamaydi, lekin ishlab chiqarish jarayonlari tufayli ular ifloslanish va sifat jihatidan imkoniyatlarini yo'qotishi mumkin.

Mineral xom ashyo resurslari geologik Qashqadaryo viloyatining hududi Hisor tuzli, janubi-g'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva neft gazli regioniga mansubdir. Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalarni tabiiy gazli kondensat, neft, osh va kaliy tuzlari, qazilma uchun foydalaniladigan toshlar va qurilish materiallari sanoati uchun xom ashyo tashkil etadi. Shuningdek, magranetsning uncha katta bo'lmagan zahiralari bor.



Tabiiy gazning aniqlangan zahiralari ko'ra Qashqadaryo viloyati hozirgi paytda O'zbekistonda birinchi o'rinni egallaydi. Qashqadaryo viloyatida gaz va neft qazib olish yildan-yilga oshib bormoqda. 1977 – yilda viloyat hududida 8 mlrd m<sup>3</sup> gaz bo'lsa, 1992-yilda 36,9 mlrd m<sup>3</sup> gaz, 946 ming tonna neft qazib olinishi atmosfera havosini ifloslanishi darajasini oshirmoqda.

**Suv resurslari.** Suv tabiat tomonidan inson uchun in'om etilgan bebaho boylikdir. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish qulay issiqlik sharoitlariga ega bo'lsada bu hudud uchun yilning katta qismida namning o'ta tanqisligi xosdir. Ayni paytda yillik yog'inlarning 90-5% i noyabr, may oylariga tushadi. Shu sababli qishloq xo'jaligi ekinlarini faqat sug'orib hosil olish mumkin. Qashqadaryo viloyati suv resurslarining asosiy manbai bo'lgan yer usti hududiy jihatdan juda notekis taqsimlangan. Foydali suv hajmi 2,3 mlrd m kubdan ortiqroq bo'lgan 14 ta suv ombori qurilgan.

Yer usti suvlaridan tashqari viloyatda hududiy taqsimlanish suvli qatlamlarining chuqurligi minerallasuv darajasiga ko'ra turli xil bo'lgan yer osti suvlarining ham ancha katta zahiralari aniqlangan. Hozirgi paytda yer osti suvlari sug'orishda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda sanoat korxonalarini, sanoat korxonalarini maishiy kommunal xo'jaliklarini suv bilan ta'minlashda ancha katta miqyosda foydalanilmoqda. Yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida viloyatda 5500 ga yaqin artezan quduqlar qazilgan.

Yer resurslari Qashqadaryo viloyati xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan katta yer fondiga ega. 1998 yil ma'lumotlariga ko'ra viloyat yer fondining 2,5 mln ga dan ortiqroq maydoni qishloq xo'jaligi

tamroqlarida foydalanish uchun ajratilgan bo'lib, shundan 1,4 mln ga maydon yaylov va 0,7 mln ga maydon qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan.

**Biologik resurslari.** Qashqadaryo viloyati nobotot va hayvonot olamidani xo'jalikda foydalanishda katta imkoniyatlarga ega.

S.X.Chevrenidi va S.M.Mustafayevning ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatida o'simliklarning 1184 ta turi yoki O'zbekiston yer florasi vakillarining 40% iga yaqini tarqalgan. O'simlik turlarining aksariyat katta qismi oziq-ovqat manbai, texnika, xom ashyosi, tibbiyotda dori tayyorlash, qurilish va Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Qamashi va G'uzor tumanlari hududida osh tuzi va kaliy tuzining katta Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlarida osh tuzining juda katta zahiralari mavjud.

Dehqonobod konida bentonitli gillarning 180 mln tonna miqdoridagi bashoratlashtirilgan zahirasi aniqlangan qatlamlarining qalinligi 150 m gacha bo'lgan. Bu gillar keramzit ishlab chiqarishda foydalanishi mumkin. Bentonitli gillarning 10,2 mln tonna miqdoridagi zahirasi Qarshi shahri yaqinidagi Qo'ng'ir tog'da ham aniqlangan. Kitob tumanida marmarning Birkunlik, Bodomzor va Sevaz kabi yirik konlari joylashgan. Bu konlardagi marmarning umumiy zahirasi 4 mln m<sup>3</sup> dan ortiqroqdir. Ohaktoshning Zarafshon tizmasining janubiy tarmoqlaridagi Qaynar va Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy tarmoqlaridagi Langar konlari aniqlangan. Geologik qidiruv hisoblariga ko'ra Qaynar konida ohaktoshning zahirasi 9 mln tonnaga, Langar konida esa 140 mln tonnaga yaqin.

**Iqlim resurslari.** Qashqadaryo hududining katta qismi qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish uchun yetarli bo'lgan issiqlik miqdoriga va

uzoq davom etadigan vegetatsiya davriga ega. O'zining janubiy geografik o'rni tufayli Qashqadaryo O'zbekistonda quyosh yoritadigan soatlar miqdori eng ko'p bo'lgan joydir.

Hisoblarga ko'ra viloyatning tekislik qismida yalpi radiatsiyaning yillik miqdori 6700-7100 m<sup>2</sup> ga teng.

Hozirgi paytda iqlim resurslaridan samarali foydalanish bir qator atmosfera havosini muhofaza qilish muammolari ham vujudga kelmoqda. 1992-yilda viloyatda 456,4 ming tonnaga yaqin har xil zararli modda havoga chiqarib tashlangan. 100 dan ortiqroq katta-kichik korxonalaridan tashkil topgan viloyat sanoat atmosfera havosini har-xil zararli moddalar bilan ifloslanishda asosiy manbalardan biridir. Ayniqsa, gaz qazib oluvchi va gazni qayta ishlovchi sanoatning korxonalari atmosferani oltingugurt, uglerod oksidi va boshqa gazlar bilan ifloslamoqda. Atmosfera havosini ifloslovchi yana bir manba transportdir. Transportning rivojlanishida ayniqsa avtomobillar sonini ko'payishi va boshqa sohalarda keng foydalanish mumkin.

Viloyatda 64,5 ming gektar o'rmonli maydon bo'lib ulardan hammasi tabiiy tog' o'rmonlari tashkil etadi.

CHo'l mintaqasiga Qashqadaryo viloyatining g'arbiy qismi band etgan. Qarshi cho'li va unga sharqda tutashgan tog' oldi tekisliklari, Sandiqli va Qarnob cho'llari kiradi. CHo'l mintaqasiga o'rtacha yillik harorat 16-18<sup>o</sup> yanvarning o'rtacha harorati 0,1-3,3 bo'lib, 270-320 kun davomida harorat 5<sup>o</sup> dan yuqori bo'ladi. Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori 130-230 mm. Mintaqaning asosiy tuproq turlarini taqirli, cho'l qumli, so'rqo'ng'ir tuproqlar tashkil etadi va ular orasida taqirlari va sho'rhoklari ham tarqalgan.

CHO'l mintaqasining o'simlik qoplamida qandim, (juzg'un), shuvoq kabi o'simlikdan iborat kompleksi uchraydi. Relyefning pastqam joylarida shuvoqlar va sho'ralar o'sadi. Bu mintaqalar cho'lli qumlarida kserofit o'simliklaridan qandim (juzg'un), quyon suyak, qizil qandim, mustahkamlangan qumlarda esa shuvoq, iloq, qorasaksovul, qirqqiz, selin iloq tuyapaypoq o'sadi.

Qarshi cho'lining ichki tekisliklarida o'simliklardan cheksiz, isiriq, oq chitir, butalardan yulg'un, qorasaksovul va boshqa o'simliklar xosdir.

Bundan tashqari cho'lining ham sho'rlangan joylarida sho'ra, tereskan, dastarbosh, kuchli sho'rlangan yerlarda esa qora sho'ra, sarsazan, qizil miya va oqbosh uchraydi.

Adir mintaqasiga Qashqadaryo viloyatining G'uzor, Dehqonobod, Qamashi, Yakabog', Kitob, Shahrisabz va Chiroqchi tumanlarining tog'oldi tekisliklari va qirlari kiradi. Mintaqaning iqlim sharoitlari cho'lnikiga nisbatan ancha namroq. Yanvarning o'rtacha harorati 25-30<sup>0</sup> vegetatsiya davri (dekabr oyining o'rtasigacha) 280-300 kunni tashkil etadi.

Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori 300-600 mm bo'lib, shundan 220-360 mm noyabr-mart oylarida yog'adi. Mintaqaning asosiy tuproq tiplarini asl (tipik) va tog' bo'z tuproqlar tashkil etadi. Mintaqaning yuqori qismida ayrim joylarda bu tuproqlar jigarrang tuproqlar bilan almashinadi. Adir mintaqasining 600-800 m gacha bo'lgan quyi qismida och tusli va asl (tipik) bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, landshaft xususiyatlariga ko'ra tog'oldi chala cho'llar zonasini hosil qiladi. Bu yerlarni asosiy o'simliklari rang va qo'ng'irboshdan iborat. Ulardan tashqari tuproq sharoitlariga bog'liq holda qizilquloq, oqvoq, mingbosh, chitir va boshqa o'simliklar o'sadi. Toshloq joylarda yormon, sho'rlangan tuproqli yerlarda bir yillik sho'ralar

uchraydi. Adir mintaqasi o'simliklar dunyosiga boylik hamda dehqonchilik uchun qulayligi bilan ajralib turadi.

Tog' mintaqasi viloyatning sharqiy, janubiy va shimoliy-sharqiy qismini egallaydigan Hisor va Zarafshon tizmalarining ishg'ol qiladi. Bu mintaqada o'simliklari tog'larining murakkab relyef va yonbag'irlariga bog'liq holda tarqalgan. Bu tog'lar o'rtacha balandliklarida kuchli va kuchsiz parchalangan relyef xillari va qadimiy yuzalari qurilgan relyef shakllangan. Mintaqaning iqlimi ancha salqin bo'lib, yanvarning o'rtacha harorati 20-24 vegetatsiya davri (o'rtacha harorati 5-0 dan yuqori bo'lgan kunlar) 200-250 kun davom etadi.

Yillik yog'inlarning miqdori mintaqaning quyi qismida 400-500 mm, yuqori qismida esa 500-750 mm, jigarrang tog'-o'rmon va och tusli tuproqlar asosiy tuproq tiplaridir.

Tog' mintaqasining o'simliklari bug'doyiq, har xil o'tlar shuvoq, chalov betaga, butali va daraxtli farmatsiyalardan iborat bo'lib, ular chala dashtlar va har xil o'tli quruq dashtlarni hosil qiladi. Tog' mintaqasining daraxt va buta o'simliklari mexanik butazorlari, archazorlarni va bargini to'kadigan tog' o'rmonlari va butazorlarni hosil qiladi. Tikanli butalar tog'larning quyi va o'rtacha balandliklarida tarqalgan bo'lib, ularga na'matak, bodomcha, uchqat, zirk, olma, jiyda va boshqa tikanli butalar kiradi. Tikanli butalarning pastki yarmida oqquray va boshqa o'simliklar o'sadi. Archazorlar tog' mintaqasining o'rta va yuqori qismlarida tarqalgan, Hisor tizmasining Yakkabog' va Dehqonobod tumanlari hududidagi tog'larda hamda Qoratepa tog'larining janubiy yonbag'irlarining yuqori qismida qora archa o'sadi. Bu archazorlarning

pastki yarmida butalardan uchqat, zarang, na'matak, ko'p yillik o'simliklardan esa taraqbosh, lola va boshqali edimerlar o'sadi.

Tog' mintaqasining yuqori qismida, Hisor va Zarafshon tizmalarining o'rtacha balandlikdagi tog'larda (katta va kichik Uradaryo oralig'ida, Qashqadaryo boshlanadigan tog'larda) savr archa o'sadi. Bu yerdagi archazorlarning yarusi butalardan (bodom, pista) va o'tli o'simliklardan (qo'ng'irbosh, tog' lolasi, yalpiz, tog' yo'ng'ichqasi va boshqalar) iborat mintaqaning yuqori qismida va shuningdek, o'rik, archa o'sadi. Bunday archazorlar ayniqsa Tanxozdaryo, Yakkabog'daryo va Oqsuv daryosi havzalarining yuqori qismida ancha katta maydonlarda tarqalgan. Ularning quyi yarmida zirk va bodom butalari, kiyik o't, zira, tog' yalpiz, shiroch va boshqalar o'sadi. Bargini to'kadigan tog' o'rmonlari va butazorlarining tarkibini yong'oq, olma, zarang, bodom, pista, zirk kabi daraxtlar va butalar tashkil etadi.

Yaylov mintaqasiga Hisor tizmasining dengiz sathidan 2800-3000 m dan yuqori qismlari kiradi. Bu yerlarda relyef kuchli parchalanish, ayrim joylarda muzliklar uchraydi. 3-4 m qalinlikdagi qor qatlami hosil bo'ladi.

Mintaqaning ancha maydoni toshloqzorlar bilan band, o'simliklarining vegetatsiya davri 50-110 kundan oshmaydi. Bu yerlardagi o'simlik qoplaminig asosan subalp va alp o'tloqlari tashkil etadi. Subalp o'tloqlarida yovvoyi sulii, mushuk quyruq, rux, tipchoq va boshqa o'simliklar o'sadi.

Qashqadaryo va uning asosiy irmoqlarining qayrlarida tarqalgan. To'qaylarda daraxt va butalardan jiyda, yulg'un, jangal, o'simliklardan esa ajriq, qirqbug'im va boshqalar o'sadi. Qashqadaryo viloyatida xalq xo'jaligining turli sohalarida kishilar ehtiyojini qondirish uchun madaniy

o'simliklar ham ko'p o'stiriladi. Bu o'simliklarga sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtiriladigan texnika ekinlari (paxta, makkajo'xori, qandlavlasi, kartoshka va boshqalar) yetishtiriladi.

Keyingi yillarda viloyat ancha katta maydonlarning o'zlashtirilishi ko'plab noyob o'simlik areallarining qisqarishga olib keladi. Qumli cho'llarda geologik qidiruv ishlarining olib borilishi ko'chma qumlar doirasining nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida qumlarning ko'chishini tezlashtirmoqda.

## II BOB. QO'RIQLANADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY MAQOMLARI VA ULAR TIZIMIDA TABIAT YODGORLIKLARI

O'zbekiston Respublikasining 2004 yilda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida "Yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik ilmiy, ma'daniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq va qisman chiqarilgan uchastkalari muxofaza etiladigan tabiiy hududlar xisoblanadi. Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muxofaza qilish va foydalanish rejimi o'rnatiladi. Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi deb" ta'kidlangan. Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar maqsadi va rejimiga qarab:

1. Davlat qo'rixonalarini;
2. Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini;
3. Tabiat bog'lari
4. Davlat tabiat yodgorliklari;
5. Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar;
6. Muhofaza etiladigan landshaftlar;
7. Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish kabi uchun mo'ljallangan hududlar kabi yetti toifaga bo'linadi. Bular ichida davlat tabiat



yodgorliklari o'zining noyoblighi, kichik maydonni egallashi, tashkil etilishi va rejimini saqlash uchun katta mablag'lar talab etilmasligi bilan alohida ahamiyatga ega.

## **2.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tashkil etish tarixidan**

Nihoyatda qadim tarixga va jozibador tabiatga ega bo'lgan Qashqadaryo havzasi 28,4 ming kv km teng bo'lib O'zbekiston Respublikasining hududining 7% ini tashkil etadi.

O'zbekistonning bu janubiy viloyati bozor iqtisodiyoti sharoiti to'la amal qilayotgan XXI asrning birinchi o'n yilliklarida o'zining tabiiy resurslarga boyligi xususan yenergetik manba zaxiralariga boyligi bilan respublikamizning va xorij ish bilarmonlarining diqqatini tortib kelmoqda. Viloyat hududida ishlab turgan 70 dan ortiq gaz, gaz kondensati neft' kabi yenergetika konlarida yanada samaraliroq foydalanish viloyatning Qamashi va Dehqonobod tumanlari hududida katta zaxiraga ega bo'lgan osh tuzi, kaliy tuzi kabi muxim ximiya va oziq – ovqat sanoati uchun mineral resurslardan jadal foydalanish maqsadida Rossiya, Yaponiya, Malayziya, Xitoy va boshqa chet el sarmoyalari o'z mablag'larini kiritmoqdalar chunki mamlakatimizning juda qulay va boy tabiiy iqlim va mineral resurslarga qaratilgan faoliyat uchun O'zbekiston hukumati tomonidan huquqiy kafolatlar yaratilgan. Mineral xom ashyo va yer suv va iqlim resurslaridan foydalanishda tabiatga muayyan darajada ta'sir ko'rsatiladi, yer osti boyliklarini qazib olishda yer usti relyefiga, unumdor jism bo'lgan tuproq qoplamiga, o'simlik va hayvonot olamiga shu jumladan tuproqdagi mikroorganizmlarning kamayishiga olib keladi.

Joyning mikroiqlimiga jiddiy ta'sir ko'rsatilib 100 ming yillar mobaynida shakllangan flora va fauna tarkibi jiddiy o'zgarishga uchraydi. Astoydil ta'kidlash zarurki joyda shakllangan landshaft umuman tabiat bir butun yaxlit organizm tabiatning barcha komponentlari bir-biri bilan ko'z ilg'amas jihatlar orqali bog'langan demak landshaftni tarkib etgan komponentlar alohida – alohida olingan tizimga ega bo'lgan komplekslardir. Kompleksning tarkibiga kirgan har bir unsur va komponent o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqda va bir-birini taqozo etgan holda mavjud bo'ladi. Tabiatdan foydalanuvchilarning xoxish va yeridasiga bog'liq bo'lmagan tabiatning bunday uyg'unligi geotizim – geosistema ilmiy atamasida mujassamlashgan. Geotizim – geosistema mazmunida tiriklikning muhit o'zgarishining tiriklikka ta'siri, muhitning uzoq geologik davrlar mobaynida shakllanish tarixi nazarda tutiladi.

Tabiatning muayyan jihatlari tadqiq etadigan geografiya biologiya, ekologiya va boshqa tabiiy fanlar tabiat qonunlarining aniq komponent (o'simlik hayvonot dunyosi, mikroorganizmlar tuproq qoplami) aniq komponentlari aniq hududda qanday namoyon bo'lishni o'rganadi. Tabiat kompleksiga chetdan bo'lgan ta'sir- insonning tabiat resurslaridan foydalanishi kompleksda chuqur o'zgarishlar bo'lib kelishiga olib keladi. Shu jihatdan olganda Qashqadaryo viloyatida yer osti boyliklaridan jadal foydalanish, katta-katta maydonlarni o'zlashtirilishi irrigatsiya – melioratsiya tizimini bunyod etilishi transport kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi region tabiatida jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga olib kelmoqda.

Atrof muhit – tabiat bilan jamiyatni bir butun yaxlit tizim deb o'rganadigan tabiat manbalaridan foydalanishda resurslar faqat kamayib

qolmay ular o'rnida qanday jarayon va hodisalar vujudga kelishini yangidan shakllangan kompleks shu joyning tabiatida shu atrofda yashayotgan aholiga qanday ta'sir ko'rsatishni asoslab berishi lozim. Shu jumladan davlat tabiat yodgorligi deb e'lon qilingan noyob tabiiy obyektlarga ham ta'sir ko'rsatiladi.

Tabiatning noyob betakror obyekt va uchastkalarini tabiat yodgorligi sifatida muxofaza qilish masalasi tabiatni qo'riqlash umumsayyoraviy, regional va mahalliy muammolarni eng dolzarb "tabiat yodgorligi atamasi mashhur nemis tabiatshunos olimi A.Gumbold tomonidan XIX asrda ilmiy iste'mol kiritilgan. Tabiatni bir butun yaxlit tuzilma deb qarashga intilgan bu zabardas olim o'zining koinot nomli asarida aniq bir hududning o'ziga xos hususiyati tabiiy rivojlanish tarixini ifodalovchi mazmunda tabiat yodgorligi iborasi bilan ifodalagan. Qo'riqxonalar rezirvatlar, milliy tabiat bog'lari, buyurtma qo'riqxonalari kabi muhofaza etiladigan muassasalar vazifaviy ko'lami keng tabiat andozalari bo'lish bilan birga umumdavlat va regional ahamiyatga ega. Davlat muassasalarining bunday yirik obyektlarni tashkil etish ko'pdan-ko'p huquqiy, moliyaviy masalalar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli tabiati jiddiy o'zgarishga uchrayotgan har qanday kuchliroq maydonlarda ham yirik muhofaza etiladigan tabiiy hudud muassasasi barpo etish maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. Aslida qo'riqxonalar buyurtma qo'riqxonalar singari yirikroq muhofaza obyektini tashkil etish uchun umumdavlat huquqiy maqomi beradigan qonun chiqarishi talab etiladi.

Mitti qo'riqxonalar bo'lgan tabiat yodgorliklarini tashkil etish masalasi birmuncha osonroq o'zgarish xavfi bo'lgan landshaft maydonlari

va tabiiy obyektlar ilmiy o'rganilib mahalliy hokimiyat tomonidan ahamiyatli asoslansa kifoya qiladi.

Atrof muhitni qo'riqlash tuzilmasida milliy bog'larni tashkil etish dastlabki tadbirlardan sanaladi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish ma'lumotlarga qaraganda Yevropa Amerika davlatlarida galdagi milliy bog'lar tabiat yodgorliklari tarzida tashkil etilgan. Tabiatning nihoyatda go'zal, dam olish va tomosha qilishga arzigulik noyob uchastkalarini texnikaning nomaqbul ta'siridan asrash maqsadida milliy bog'lar deb e'lon qilishga intilish bo'lgan. Aslida bunday hududlar ancha katta maydonlarni egallamagan. Shuning uchun ham milliy bog'lar deb atalganki, milliy tabiat bog'lari manzarasi ko'rkam, tomoshabop, ko'pincha sayohat qilishga arziydigan landshaftlari bilan ajralib turgan. Demak, tabiatning dam olish sayohat uyushtirish uchun obyektlari mavjud bo'lgan uchastkalarini o'zgartirish uchun salbiy ta'siridan saqlab qolish uchun, Milliy bog'lar sifatida saqlab qolish uchun muhofaza qilinadigan hududlar maqomi berilgan. Hozirgi zamon milliy tabiat bog'lari asosan qo'riqlanadigan va sayohat - turizm maqsadida tabiat qo'ynida dam olish uchun mo'ljallangan ikki zonadan qilib tashkil etilgan dastlabki davrlarda kishilarning tabiat qo'ynida hordiq chiqarish uchun intilishi va turist sifatida yopirilib kelishi nisbatan sust bo'lgan, natijada tabiatdan foydalanishning rekreatsiya, yo'nalishi, noyob jozibali uchastkalariga ziyon yetkazish xavfi deyarli bo'lmagan, shuning uchun bunday diqqatga sazovor ko'rkam obyekt va maskanlarni kishilarining ishlab chiqarish faoliyati doirasidan olinib, milliy bog'lar maqomida muhofaza qilingan. Uncha aniq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, Yer sayyorasining 4 mln kv.km. yoki planetamiz quruqlik qismini 2% dan

ko'proq maydoni muhofaza etiladigan hududlardir. BMTning ro'yxatida 130 davlatlarda 2400 dan oshiq milliy bog'lar faoliyat ko'rsatilayotganligi qayd etilgan. G'arb davlatlarida milliy bog' bilan tabiat yodgorliklari bir-biridan uncha katta farq qilmaydi. Yevropaning ba'zi davlatida va Amerika Qo'shma shtatlarida muhofaza qilinadigan hududlar qayd etganimizdek, tabiat yodgorliklar sifatida tashkil etilgan, chunki ular hozirgidek katta yaxlit maydonlarni emas, bir-biridan bo'lak-bo'lak, kichik maydonlardagi e'tiborga loyiq obyektlari mavjud bo'lgan uchastkalarda tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda muhofaza etiladigan hududlar juda murakkab tashkiliy tuzilma hisoblanadi. AQShda muhofaza hududlari 125 kategoriyalardagi obyektlarni o'z ichiga olgan uch guruhdagi hududlarda – 1 tabiiy, 2 – tarixiy va 3 – rekreatsiya hududlardan tashkil topgan. Muhofaza etiladigan tabiiy guruhlar tarkibini milliy bog'lar tabiat yodgorliklari va milliy rezervatlar maqomidagi obyektlar tashkil qiladi. Nihoyatda o'ziga xos jozibador landshaft va ko'plab e'tiborga sazovor obyektlar to'plami mavjud bo'lgan hududlarda milliy bog'lar tashkil etilgan bo'lsa, milliy tabiat yodgorliklari maqomida bir yoki bir necha noyob obyektlar mavjud bo'lgan hududlar doirasida tashkil etiladi. Aksariyat hollarda muhofaza tortilayotgan hududning asosiy ko'rsatkich bo'lmay ularning tashkil etilish tarkibi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'pchilik hollarda tabiat yodgorligi maqomidagi obyektlar milliy bog'lar guruhiga ham o'tkazilishi mumkin.

Chunonchi, bugungi kunda jahonda mashhur Grand-Kanyon milliy bog'i dastlab tabiat milliy yodgorligi deb rasmiy ravishda tashkil etilgan. Kolorado daryosining o'rta oqimida 350 km dagi bo'lagi qariyb 200 m chuqurlikka o'yib kirib, nihoyatda mohabatli dara hosil qilgan. Qiyofasi va

o'lchamlari bo'yicha Grand-Kanyon Kalorado platosi relyefidagi eng ulkan geomorfologik obyekt bo'lib qolmasdan butun planetamiz relyefida ham o'ziga xosligi jihatdan yakkayu-yagonadir. Bu o'lkan relyef shakli 1885 yilda tabiat-milliy yodgorligi maqomida tashkil etilgan hozirgi vaqtda milliy bog' sifatida AQShning Petrifayt-Florest milliy bog'ining tashkil etishga asos bo'lgan tosh qotgan denderaflora tipik namoyon bo'lgan geologik ochilma mavjud uchastka paleontologiya yodgorligi sifatida uzoq yillarda muhofaza etilgan. Ayni zamonda bu noyob geologik maydon milliy bog' maqomida ishlamoqda. Shuningdek jahonning eng uzun Karst g'orlari-Mamant g'ori (uzunligi 361 km) va Flint-Pridj g'oyalarining har biri milliy tabiat yodgorliklari tashkil etilgan bo'lsada hozir har ikki g'or yagona Mamont g'ori milliy tabiat bog'i maqomida ish yuritadi. Bunday geologik va iqlimik ekstremum (yakka-yagona) obyektlar tabiat yodgorliklari maqomidan milliy bog' huquqiyga o'tkazilganlarga Ajal vodiysi (Shimoliy Amerikaning eng issiq va rast joyi) King-Kanyon, Predvend va Losomet milliy bog'lardagi gigant sikvoyalar mavjud uchastkalarni ham kiritish mumkin. Planetamizning geologik o'tmishdagi voqealardan quyosh beruvchi noyob tabiiy obyektlarning qo'riqxonalar va milliy tabiat bog'lari tarkibida muhofaza qilinib turizm va sayohat maqsadlarga xizmat qilayotganiga Latviyaning Gavayya, Estoniyaning Laxemaa milliy bog'laridagi valunalar (to'rtlamchi davr muzligi keltirgan tosh qoyalar), Rossiyaning Pricha-Terassa qo'riqxonasidagi toshloq va qumloq dalalar, Turkmanistonning Repetik qo'riqxonasidagi qum barxanlari yoki saksovulzor uchastkalar tabiat yodgorligi sifatida muhofaza qilinmoqda.

Turkiston tizmasidagi O'zbekiston milliy tabiat bog'i tarkibidagi qirqqiz Ugom Chotqol milliy tabiat bog'ida tosh qoyalar Surxondaryodagi Teshiktosh g'ori, Zarautsoy kamaridagi tosh bitiklar, Qoratepa tog'ining qalqamasoy soy havzasidagi Siypantosh bitiklar, Surxondaryoning Boysun tumanidagi mashhur temir darvoza, Sangardak daryosidagi Sharshara Hisor tog'laridagi qator karst g'orlari tabiat yodgorliklari sifatida qo'riqlanmoqda. Qashqadaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra viloyat hududi doirasida 150 dan yaqin tabiat yodgorliklari ro'yxatga olingan ammo ularning soni bundan ham ko'proq. Davlat tabiat yodgorligi maqomiga ega bo'lgan obyektlarning aksariyati to'liq tabiiy geografik tavsifga ega emas. Qashqadaryo havzasidagi noyob tabiat obyektlarini chuqur o'rganish va ularning batafsil ta'rifini tuzib ekoturizm obyektlari sifatida foydalanish muhim vazifalardan biri.

Shuni aytish kerakki Janubiy O'zbekistonning Boysun tumanidagi Teshiktosh temir darvoza Yakkabog' tog'laridagi Amir Temur kabi mashhur tabiat yodgorligi juda qadimdan sayohatchilarning umuman aholining diqqat markazida bo'lib kelgan. XIX asrning ozirida O'rta Osiyo biologiya va geografiyasini o'rgangan mashhur olim YE.Mushketov, gidrologiyasini o'rgangan V.L.Lipskiy, XX asr boshida tuproqlarni o'rgangan S.S.Neustriyev kabi mashhur tadqiqotchilar temir darvoza darasi haqida ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Janubiy O'zbekiston geomorfologiyasini batafsil tadqiq qilgan Toshkent Davlat universitetining professori O.Y.Poslovskiya "O'zining 1968-yilda nashr etilgan Janubiy O'zbekiston tog'larida" nomli kitobida YE.M.Mushketovning temir darvoza haqidagi ma'lumotlarni keltiradi:

“Temir darvoza juda tor uning eni 10 sajyon (21 metr) ga yetar yetmas ba’zi joylari bundan ham qisqa tagi tekis silliq mayda shag’al va qumlar bilan qoplangan ajoyib tosh yo’lga o’xshaydi. Yon bag’irlari tik devorlarning balandligi 500 fut (150 m) shunday mahobatlik balandlik va arzimas kenglikka ega bo’lgan bu dara xuddi qoyalar orasidagi yoriqqa o’xshaydi” (L.V.Mushketov “Turkiston” 1909 yil) Olimaning Postlovskiyning ma’lumotiga ko’ra Mushketovning tadqiqotchilarida hamkorlik qilgan rus rassomi Karazen chizgan temir darvozaning rasmi ilova qilingan. Shuningdek Yakkabog’dagi O’zbekiston eng uzun g’ori Amir Temur g’ori haqida A.Makedonskiy yurishlarida qatnashgan yunon geografi Kvint Kursi Pruf o’zining kitoblarida xabar bergan. Bu mashhur g’or haqida A.Navoiyning Sabbai-sayyor dostonida ko’p tilimlarning sirini biluvchi hakim yashayotgan sehrlil ibodatxona sifatida badiiy tasvir keltiriladi. Bugungi kunda 2 qismdan iborat hujjatli film olingan 860 metr uzunlikdagi Amir Temur g’ori Hisor qo’riqxonasi tarkibidagi eng mashhur tabiat yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Amir Temur g’ori joylashgan Qalayi Sheron darasi va boshqa Hisor tog’larining janubiy O’zbekiston hududi to’g’risidagi boshqa chuqur daralar xuddi AQSH dagi Grand Kanyon darasidek davlat tabiat yodgorligi sifatida muhofaza qilinishi haqidagi fikrlar Qarshi Davlat universiteti geografiya kafedrasida olimlar taklif etgan. Jumladan 2006-yilning noyabr oyida Toshkentda o’tgan O’zbekiston geografiya jamiyatining 7-syezdi materiallari chop etilgan. To’plamda A.Mamatov, R.A.Ahmedovlarning “Hisor tog’larining geomorfologik yodgorliklarini o’rganishda doir (114-115 betlar) shu to’plamda A.Mamatov, S.T.To’lanova, L.N.Erdonovlarning daryo tanglariga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomi berilishi haqidagi



mulohazalar” maqolalari e’lon qilingan. Bularda Janubiy O‘zbekistonning jonsiz tabiat yodgorliklari haqida batafsil ilmiy ta’riflangan.

## **2.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tarixidan**

O‘zbekiston Respublikasida 2004 yil 3 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan qabul qilingan “ Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to’g’risida” gi qonunning maqsadi “ tipik, noyob, qimmatli tabiiy obektlar va majmualarni, o’simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolishdan, inson faoliyatining tabiatga salbiy tasir ko’rsatishi oldini olishdan, tabiiy jarayonlarni o’rganishdan, atrof tabiiy monitoringini olib borishdan, ekologik marifat va tarbiyani takomillashtirish” dan iborat qilib belgilangan qonunning 4- moddasida “yerning va suv kengliklarining (akvatoriyalarining) ustuvor ekologik, ilmiy, maddaniy, estetik, rekratsiya va sanitariya, sog’lomlashtirish ahamiyatga molik bo’lgan, xo’jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to’liq yoki qisman chiqarilgan uchaskalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi, deb muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy maqomi belgilangan”.

Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko’paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o’rnatiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar Qonunda biologik, landshaft rang–barangligini taminlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo’ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etish ekanligi huquqiy jihat ekanligi belgilangan. Qonunning beshinchi moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o’zlarining

belgilangan maqsadi va rejimiga qarab davlat qo'riqxonalari, majmua landshaft buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar va davlat tabiat yodgorliklari kabi yetti toifadan iborat ekanligi belgilangan.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulki va davlatning muhofazasi hisoblanadi. Muhofaza etiladigan hududlarda muhofaza qilish sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan bo'lgani uchun bu belgilangan maqsadga zid bo'lgan har qanday faoliyat ta'qiqlanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkasiga soliq solinmaydi. Agar yuridik va jismoniy shaxslar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomidagi muassasalarda o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlamagan taqdirda ular egallamagan yer uchastkasi jismoniy va yuridik shaxslardan olib qo'yiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza etish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat nazorati O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda mahalliy davlat hokimiyati tomonidan amalga oshiriladi. Qonunning 16 moddasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejaları belgilangan bo'lib, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar"ning rejalarining loyihalari davlat ekologiya ekspertizasidan o'tkazishi belgilangan. Rejalarni ishlab chiqish tartibi respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Qonunning eng muhim jihatlaridan biri 17 moddada belgilanganidek tabiiy hududlarni muhofaza qilish tashkil qilish hisoblanadi. Davlat qo'riqxonalari, tabiat bog'lari va davlat biosfera

rezervatlarini muhofaza qilish qo'riqlov xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, hamda mazkur muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Davlat tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish, bunday yodgorliklar qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo'lsa, shu yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining oltinchi bob 26-27 va 28-moddalari davlat tabiat yodgorliklarining turlari, tabiiy obyektlarni davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilish va davlat yodgorliklarining rejimi haqidagi huquqiy jihatlarni belgilab beradi. Jumladan geomorfologik, paleontologik, geologik, mineralogik hosilalar notirik tabiat yodgorliklari sifatida davlat tabiat yodgorliklarining alohida toifalari ekanligi belgilangan mitti qo'riqxonalar bo'lgan yuqorida ta'riflaganimizdek davlat tabiat yodgorligi bo'lishiga loyiq geografik obyektning o'zi va u joylashgan hudud haqida uning geologik tarixi yaqin va uzoq o'tmishda qanday tabiiy jarayon va hodisalarni boshidan kechirganligi haqida xilma-xil ilmiy axborotlarni beruvchi tabiat yodgorliklari bo'lishga loyiq geografik obyektlarni yodgorlik deb e'lon qilish haqidagi masala alohida aniq ko'rsatilgan 27-moddada "Tabiiy obyektlar" maxsus vakolatli davlat organining taqdimnomasi shuningdek, yuridik yoki jismoniy shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi. Tabiiy obyektlarni ular joylashgan yer uchastkalarini olib qo'ymagan holda davlat tabiat yodgorligi deb e'lon qilishga yo'l qo'yiladi. Masalan, Qamashi tumanining tog'li qismida Ko'kbuloq qishlog'idan sharqda Katta O'radaryo oqimida

juda yirik Ko'kbuloq chashmasi to'g'ridan-to'g'ri yer ustiga daryo vodiysining ikkinchi terrasida yer ustiga chiqib turibdi, suv sarfi 150-164 m bo'lgan bu yirik chashmaning suvi chuchuk ichishga yaroqli Qamashi tumani ijroi qo'mitasi tomonidan XX asrning 70-yillarida davlat tabiat yodgorligi sifatida e'lon qilinib bugungi kungacha asrab avaylanayotgan bu gidrologik tabiat yodgorligi bu hududni o'zan geologik va geograf tadqiqotchilar tomonidan tabiat yodgorligi bo'lishiga loyiq deb taklif etilgan.

Fuqarolar yig'ini va uning hududidagi taqdimnomasiga muvofiq tuman ijroi qo'mitasi tomonidan davlat tabiat yodgorligi sifatida taqdim etilib qo'riqlanmoqda. Yoki Yakkabog' daryosining o'ng irmog'i bo'lgan Qalay devoridan taxminan 170 m balandlik otilib chiqadigan buloq Xo'kkizburun deb ataladi. Bu buloq suvining sarfi ham 1 sekunda 100 litr chamasi XX asrning 60-yillari oxirida hozirgi Hisor qo'riqxonasining Qizilsuv uchastkasi hududida joylashgan bu mashhur o'ziga xos gidrologik obyektini unga yaqin bo'lgan Toshqo'rg'on qishlog'i o'qituvchilari taklifiga muvofiq Yakkabog' tumani ijroi qo'mitasi tabiat yodgorligi deb ro'yxatga olingan Xo'kkizburun sharsharali bulog'i joylashgan joyning gidrogeologiyasi haqida muhim ilmiy ma'lumotlarni berishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ro'yxatida bo'lgan 200 ga yaqin davlat tabiat yodgorliklari huddi shu tariqa mahalliy tabiatsevarlarning takliflari asosida tumanlar hokimiyati tomonidan tashkil etilgan.

Yuqorida aytilgan Qonunning 28-moddasida davlat tabiat yodgorliklarining rejimi belgilangan Davlat tabiat yodgorliklarining

hududida ularning asrlashida xavf soladigan har qanday faoliyat ta'qiqlanadi. Tabiat yodgorligi qaysi yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalarida joylashgan bo'lsa shu yuridik va jismoniy shaxslar zimmasiga bunday yodgorliklarning rejimini ta'minlash majburiyati yuklatiladi.

Yuqorida aytganimizdek, diniy maqsadlarda foydalanayotgan davlat tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish va asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin.

“Qo'riqlanadigan tabiiy hududlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni birinchi navbatda O'zbekiston Konstitusiyasi talablarini bajarishga qaratilgan 1991-yil dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni talablariga mos ravishda amal qiladi. Chunki Konstitusiyasining 49-moddasida O'zbekiston fuqarolari tabiatning muhofaza qilishga majburdirlar deb ko'rsatilganki biz bo'lajak o'qituvchilar yurtimizning noyob tabiat obidalarini asrash ular haqida to'liq ilmiy, ma'rifiy axboriy ma'lumotlarni yoshlarga va butun aholiga yetkazishga ma'sulmiz.

Noyob betakror tabiatimizning diqqatga sazovor obyektlari bo'lgan davlat tabiat obyektlari bo'lishiga arziydigan tabiiy hosilalarni aniqlash ular haqida tabiiy geografik tavsiflarini tuzish O'zbekiston Respublikasida amalga oshiriladigan atrof muhitning muhofaza qilish davlat siyosatining tarkibiy qismi, barcha BMTning “biologik xilma-xillikni asrash va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarni” O'zbekistonda amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan keyinchalik ma'lum bir o'zgarishlar kiritilgan tabiatning muhofaza qilish to'g'risidagi

qonuni 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan “atmosfera havosini muhofaza qilish” 2000 yilda qabul qilingan “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi va boshqa yuridik hujjatlar tabiiy yodgorlikni ham muhofaza qilishda biz ziyolilarning ishtirokimiz zarur ekanligini atrof muhitni asrashga qaratilgan ishlarni olib borishimiz fuqarolik burchimiz ekanligini ta’kidlaydi.

### **2.3. Qashqadaryo havzasining tabiat yodgorliklari ularni tasniflash hamda havzada geografik tarqalish xususiyatlari**

Tabiiy boyliklardan foydalanish hajmining ko'payishi ilmiy-texnika inqilobining jadallashuv jarayoni bilan bog'liq. Bunda qo'riqxonalar tashkil etish va boshqa yo'nalishlar bilan birga tabiat yodgorliklari tashkil etish ham eng asosiy masala hisoblanadi. Tabiat yodgorligi yoki tabiat obidasi deganda tabiatning eng noyob atrofdan o'ziga xos tabiiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan ayrim uncha katta bo'lmagan maydonlari alohida olingan tog' daralarining bo'laklari ayrim qoyalar, ayrim ko'l va buloqlar, tog' va jar yon bag'irlaridagi yer po'stining ochilib qolgan yon bag'irlari ma'lum bir tarixiy yoki mashhur kishilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan daraxtzorlar yoki ayrim olingan daraxtlar o'ziga xos noyob hayvon yashaydigan maydonlar va boshqa tabiiy, tarixiy, tarixiy-tabiiy ijtimoiy obyektlar tabiat yodgorliklari deb ajratilishi mumkin.

Qashqadaryo va Surxondaryo hududida inson manzilgohi sifatida mashhur bo'lgan Neondertal odam yashagan Teshiktosh (Boysunda) g'ori Sherobodagi Zarautsoy, tosh bitiklar Qalama soy havzasidagi Siypantosh (rasm), Qamashi tumanidagi O'g'lonjon ota kabi tarixiy, ma'rifiy yodgorliklar ham davlat tabiat yodgorligi sifatida muhofazaga olingan. Sayrob qishlog'idagi Chinor va buloq, Kitob tumanidagi Oqsuv daryosining odamlar ziyorat qiladigan uchastkasi-Oqsuv ota Hazrati Bashir qishlog'idagi kishilar muqaddas qadamjo deb hisoblanadigan Xo'jaipok shifobaxsh balchiqli ziyoratgoh Qarshi cho'lining Buxoro viloyatiga tutash qismidagi Xo'jamsayot tuzli balchiqli sho'rxokli va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ular, ko'pincha o'zining noyob tabiiy

xususiyatga ega bo'lganligidan xalq orasida muqaddas ziyoratgohlar sifatida ezozlanib kelmoqda.

Jonsiz tabiat yodgorlik sifatida ro'yxatga olingan tabiiy obyektlarning bir qismi ma'lum mashhur kishilarning nomi bilan bog'liq.

Yakkabog' daryosi havzasidagi mashhur Amir Temur g'ori rivoyatlarga qaraganda Sohibqiron o'z tarafdorlari bilan kuch to'plagan askarlari tog'da harbiy ishlarni olib borish uchun mashq qilgan manzil sifatida xizmat qilgan g'orning 190 m uzunlikdagi ikki og'izli qismi "Otxona" va g'orning og'zillardagi devorlari archa yog'ochlari mustahkamlanib ishlangan supalar Temur qadamjosi sifatida ahamiyatli bo'lgani uchun davlat tabiat yodgorligi hisoblanadi. Shuningdek katta Uradaryo yuqori qismida "orovultepa" nomi bilan mashhur bo'lgan tosh bo'laklaridan tiklangan minora ham tarixiy shaxs nomi bilan bog'liq yodgorlik bo'lishi mumkin. Bobur qadami yetgan Dehqonobod tumanidagi Qoplandara (Katta Ura daryoning eng irmoqlaridan birining g'orati soyining yuqori qismida Oqrabot davonidan janubiy g'arbdagi archazorlar bilan qoplangan Kattapoy yaylovi ham rivoyatlarga ko'ra Bobur qadami yetgan manzilgohdir. Tog'li mintaqadagi bunday o'ziga xos davlat tabiat yodgorligi obyektlar bilan birga bo'lgan Qashqadaryoning tekislik qismida ko'plab tabiiy, tarixiy ahamiyatli maskanlar ham yodgorlik sifatida muhofazaga olingan bunday obyektlarga Qo'ng'irtog'ning Nekuz qishlog'i yaqinidagi Qo'ng'irbuloq shifobaxsh balchiqli uchastkasi, Kasbi tumanidagi sardobalar ham tabiat yodgorligi bo'lishi mumkin. Yerdan va boshqa tabiiy resursdan foydalanish jarayonida bunday obyektlarning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish uchun ularni tabiat yodgorligi sifatida avaylash muhim ahamiyat kasb etadi. Landshaftlarning noyob bir necha



gektarli uchastkalari geologik ochilmalar, geologik davrlarda yashagan hayvon va o'simliklarning toshga aylangan qoldiqlari mavjud bo'lgan joylar, qoyalar, daralar, buloqlar, bir necha mineral chiqib qolgan tog' yon bag'rlari, sho'rhoklar va tabiiy fonlarning ma'lum bir jarayon va qonuniyatlarini o'rganishda ilmiy ahamiyatga moyil bo'lganligi uchun yoki ular tabiiy laboratoriyalar sifatida obyekt bo'lganligi yoki ekskursiya obyektlari sifatida ko'rgazma ma'rifiy ahamiyatga molik bo'lganligi uchun ularni buzilib ketishdan saqlash maqsadida tabiat yodgorligi deb e'lon qilinadi.

Qadimgi quduqlar, qumlar orasida qolgan qo'rg'onlarning xarobalari, sardobalar, korizlar, qadimiy anhorlarning saqlanib qolgan buloqlari, qadimgi xalqlarga boshpana bo'lgan g'orlar, kamarlar, tosh bitiklar, yoki ayrim tarixiy afsonaviy shaxslarning nomlari bilan bog'liq bo'lgan changalzorlar, ko'priklar, alohida olingan chinorlar, qayrag'ochlar va boshqa tarixiy-tabiiy ahamiyatga moliy ijtimoiy-tabiiy obyektlar joy sug'orish va madaniyat tarixini o'rganishda ahamiyatga ega bo'lganligi uchun tarixiy ijtimoiy tabiat yodgorliklari viloyatdagi tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan ro'yxatga olinib, mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan muhofaza qilinadi. Maktab, maorif va keng jamoatchilik ularni saqlash, buzilib ketishdan asrash kerak bo'ladi.

Muayyan ahamiyatga ilmiy, tarixiy, ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiat obyektlari tabiat yodgorligi deb e'lon qilinarkan uni bir necha yo'nalishlar bo'yicha tavsiflash mumkin. Avvalo, tabiat obyektlari madaniyatining biogen kometitlari sifatida landshaft, biologik, botanik va zoologik mikrobiologik yodgorligiga bo'linish mumkin. Viloyatning Qarshi cho'li doirasida tipik qumli cho'l o'simliklari shakllangan Xo'ja

Muborak, Suxta kabi qoramolchilik yaylovlari bilan tutash bo'lgan saksovulzorlar biologik yodgorliklar sifatida qo'riqlash mumkin. Chunki qorko'l qo'ylari boqiladigan bu yerlarda qumlarning ko'chib yuritishidan saqlanish uchun sho'rhok pastqam joylardagi oq va qora saksovullarni saqlab bunday tabiat yodgorligi deb e'lon qilinishning asosiy maqsadidir. Aslida geobotanik nuqtai nazaridan pisomofit o'simliklarni qo'riqlash uchun tashkil etilayotgan bunday tabiat yodgorligi ko'chma qumlarning harakatini to'xtatish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan iloq yoki qum qiyog'i-selen qandim kabi o'simliklar bilan birga qum tepalarida va balandroq joylarida sho'rlanmagan qumli muhitda o'sishga moslashgan oq saksovullar, pastqam va sho'rlangan qumli muhitda o'sadigan qora saksovullar qumli cho'm o'simligi sifatida muhofaza olingan. Saksovul mayda bargli, juda sekin o'sadigan qattiq yog'ochli, yuqori kaloreyali o'tin beradigan, qumli quruq cho'llarning asosiy o'simligidir. Muborak, Mirishkor, Qumdaryo o'rmon xo'jaliklarida saksovullarni o'stirish ularning biotsenozlik ahamiyatini hisobga olib qo'riqlanmoqda.

XX asrning 50-yillariga qadar Qashqadaryo viloyatining qumli massivlardan saksovul o'tinlari tayyorlanib vagonlarga shakar va qishloqlarga tarqatilgan. 50-yillardan boshlab va hozir Markaziy Osiyo davlatlarida saksovulni kesish, undan o'tin sifatida foydalanish qonun bilan man etilgan. Qo'riqlanadigan sharoitda saksovul butalarining balandligi 5-6 m gacha yetib, qalin o'rmonga o'xshash butazorlar darajasiga yetadi. Shuning uchun ba'zan nihoyatda qurg'oqlik sharoitida o'sadigan saksovulzorlarni qum cho'l o'rmonlari deb ataydilar.

Muborak, Mirishkor va Nishon tumanlari hududidagi qumli cho'llarda saksovulzorlarning ahamiyatli qum kuchishini saqlashdan

tashqari, qumli cho'l hayvonlarini asrash va tabiiy ko'payishdagi ekologik makon sifatidagi ahamiyati kattadir. Chunki bunday saksovulzorlarda barxan mushugi, cho'l silovsini, Buxoro bug'usi kabi sut emizuvchilar qatorida, turli kemiruvchi hayvonlar va sudralib yuruvchilar hamda qushlar yashashi uchun qulay sharoit tug'iladi. Tog'li va tog' oldi zonasida masalan, Yakkabog' tumanining Hisor xo'jaligi O'g'in qishlog'idan sal shimolda asriy chinorzor, "Tunabuloq" xo'jaligida sho'r nomli daryoning Yakkabuloq daryo quyilish joyida o'lkan chinor daraxti Hisor suv omboriga shimoldan kelib quyiladigan Qorasuv darasining chuqur darasida qalin maymunjonzor-rezavor o'simliklar o'sib yotgan bir necha gektar daryo oqimi bo'ylab o'sayotgan o'simliklar kompleksi tabiatbotanika yodgorligi deb e'lon qilingan, huddi qulupnayga o'xshab o'sadigan mayda tikanli va tukli maymunjon (aslida qorasmorodina) iyun-avgust oylarida pishganda uning vitamanga boy mevasini yig'ish uchun kishilar kelib bunday tabiiy rezervar mevali maydonga jiddiy zarar yetkazar edi. Bunday noyob bir yoki bir necha turdagi o'simliklar o'sadigan maydonlar viloyatni tog'li hududida juda ko'p..

Oqsuv daryosiga chap tomondan kelib qo'shiladigan daryo vodiysidagi Osin-Shumtol o'rmoni Qashqadaryoning yuqori oqimidagi Bashir qishlog'idan sal balandda asriy chinorzorlar ham Botanika tabiiy yodgorligi sifatida himoyaga olingan. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning samolatliligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'sirida muhofaza qilish huquqiga ega. Ana shunday maqsadda atrof muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilyotgan

chora tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga ega ekanligi kafolatlangan. Demak, inson tabiatdan o'z ehtiyoji uchun foydalanayotganda shu joydagi ma'lum bir ekologik, ilmiy, madaniy, axboriy, ma'rifiy estetik ahamiyatga molik obyektlarning biror jihatiga ziyon yetishi mumkinligini doimo esdan chiqarmasligi lozim. Shunday ekan, diqqatga loyiq, ko'pincha atrofdagi boshqalaridan bir yoki bir nechta jihati bilan farq qiladigan obyektlarni bugungi va kelajak avlod uchun asrab kelishga deyarli barcha mamlakatlarda harakat qilinadi va davlat tabiat yodgorligi deb e'lon qilinadi. Tabiatning noyob, betakror obyekt va uchastkasini muhofaza qilish g'oyasi tabiatning qo'riqlash muammosining tabiiy qismi sifatida paydo bo'lgan Yevropa mamlakatlarida sanoat tarmoqlarining jadal taraqqiy etishi va ishlab chiqarishning tabiiy muhitga ta'sirining kuchayishi himoya qilinayotgan uchastkalarini ishlab chiqarish ta'siriga qarshi azaliy holatda asrab qolishga javobiy tarzida tabiatni qo'riqlash masalasi paydo bo'ldi. Boshqacha aytganda tabiatni asrash g'oyasi va xarakteri jamiyatning tabiiy-tarixiy ijtimoiy va madaniy manfaatlari mushtarak bo'g'inda sanoat ishlab chiqarish ta'siridan tabiatning diqqatga sazovor go'zal uchastkalarini asrlar osha adabiyotlarga daxldor qilib kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida vujudga keldi.

Jamiyatning tabiatga faqat moddiy boyliklar manbai deb munosabatda bo'lish bilan bir qatorda tabiat salomatlik bardamlik, zavqlanish manbai sifatida go'zal ko'rkam manzarali joylarini saqlab qolish masalasi-milliy bog'lar va boshqa asraladigan hududlar tashkil etilishiga asos bo'lgan. Atrof muhitni tabiatni qo'riqlash tuzilmasida Milliy bog'larni tashkil etish jahon birinchi qadamlar sanaladi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish. Ittifoqi ma'lumotlariga qaraganda

Yevropa va Amerika davlatlarida dastlabki milliy bog'lar tabiat yodgorliklari tarzida tashkil etilgan. Tabiatning nihoyatda go'zal, dam olish va tomosha qilish arzigulik noyob uchastkalarini texnikaning nomaqbul ta'siridan asrash maqsadida milliy bog'lar deb e'lon qilishga intilish bo'lgan. Aslida bunday hududlar uncha katta bo'lmagan maydonlarni egallagan. Shuning uchun ham milliy bog'lar deb, atalganki, milliy tabiat bog'lari manzarasi ko'rkam, bahavo, tomoshabop, ko'pincha sayohat qilishga arziydigan landshaftlari bilan ajralib turgan.

Demak, tabiatning dam olish, sayohat uyushtirish uchun obyektlari mavjud uchastkalarini ishlab chiqarishning o'zgartiruvchi salbiy ta'siridan saqlab qolish uchun Milliy bog'lar sifatida muhofaza qilinadigan hududlar maqomi berilgan. Hozirgi zamon milliy tabiat bog'lari asosan qo'riqlanadigan va sayohat– turizm tabiat qo'ynida dam olish uchun mo'ljallangan ikki xonadan iborat qilib tashkil etilgan. Dastlabki davlarda, ya'ni bundan 150 yillar oldin kishilarning tabiat qo'ynida ham intilish va turizm sifatida yopirilib kelishi nisbatan sust bo'lgan, natijada tabiatda foydalanishning rekreatsiya yo'nalishi, noyob-jozibali uchastkalariga ziyon yetkazish xavfi deyarli bo'lmagan, shuning uchun bunday diqqatga sazovor ko'rkam obyekt va maskanlarni kishilarning ishlab chiqarish faoliyati doirasidan olinib, milliy bog'lar maqomida muhofaza qilingan. Uncha aniq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra Yer sayyorasining taxminan 2% dan ko'proq maydoni muhofaza etiladigan hududlardir. Milliy bog' bilan tabiat yodgorliklari maqomiga ega bo'lgan, g'arb davlatlarida muhofaza hududlari bir-biridan katta farq qilmaydi.

Respublikamizning Zomin va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'lari tarkibi noyob relyef shakllari, toshqotgan pomontologiya yodgorliklari,

go'zal landshaft uchastkalari, Hisor tizmasining Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari doirasidagi Temur darvoza, Hisorak Galasat, Langar kabi ko'pchilikka ma'lum va mashhur dara-Tanchimar, Amir karst g'ori, neandertal odam yashagan Teshiktosh g'ori Zarut soy kamaridagi toshbitiklar va shunga o'xshash ilmiy tarixiy-ma'rifiy ahamiyatli tabiiy obektlar nafaqat tabiat yodgorligi balki kichikroq tabiat bog'i maqomi berilib, to'liq ta'riflanishi va ekoturizm obyektlari tarzida tabiat betakrorligini targ'ib qilishga loyiq. Shunday qilinganda tabiatimizning rang-barangligiga, ulardan ekologik madaniyatni shakllantirish vositasi yoshlarda tabiatimizga muhr uyg'otgan bo'lar edi. Antropogen ta'sirdan noma'lum tomonga o'zgarayotgan tabiatga asrab-avaylash tuyg'ularini tarbiyalagan bo'lur edi. Shunday ekan tabiatdan, uning resurslaridan foydalanish iqtisodiy manfaatlar bilan ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatli uchastkalarining buzilishini oldini olish uchun ular haqidagi bilimlarni bilib olish, ularni kelajak uchun asrash lozimligini hamma tushunib yetishi zarur.

Tabiatdan foydalanganda unda muayyan darajada o'zgarish ro'y berishi mumkinligi isbotni talab qilmaydigan haqiqat. Shuningdek, tabiiy resurslar ishlab chiqarishga joriy etilganda tabiat kompleksiga, imkon qadar ziyon yetkazmaslikka, unda noxush tomonga o'zgarish bo'lmaslik yo'lidan borishi zarur. Buning uchun tabiatdan foydalanuvchi tabiatga birovning noxush irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv qonunlarni bilishi, tabiatni muhofaza qilishga doir yuridek hujjatlarga amal qilishi lozim. Atrof muhitga ziyon yetkazmaydigan, ilmiy asoslangan texnologiyani qo'llab ish yuritishi shart. 2004-yilning dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar

to'g'risidagi Qonunning 26, 27 va 28-moddalarini o'z ichiga olgan oltinchi Davlat tabiat yodgorliklari" nomli bobida tabiat yodgorliklarining turlari, tabiiy obyektlarni davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilish tartibi va davlat tabiat yodgorliklarining rejimi bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan. "Noyob o'rini to'ldirib bo'lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat tabiiy yodgorliklari hisoblanadi" deb qayd etilgan.

Qonunning ushbu 26-moddasida gidrologik (botqoq, ko'l, daryo va boshqalar), botanik (ayrim o'simliklarni saqlab qolish uchun mo'ljallangan), geomorfologik (relyef shakllari-tog' dara, qoya, g'or va boshqalar) paleontologik (qazilma obyektlar) kon belgilari, geologik va mineralogik hosila yodgorliklaridan iborat beshta turlari ko'rsatilgan. Qonunning to'rtinchi boti va "majmua" (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini (21 va 22-moddalar) yettinchi bobi "Muhofao'a etiladigan landshaftlar" (35, 36, 37, 38, 39, 40, 41-moddalar) ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy obyekt va landshaftlarni asl holida saqlash mo'ljallangan hududlar, shuningdek, shifobaxsh-bardamlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan uchastkalar, rekreatsiya zonalari va boshqa ekologik ahamiyatli, tabiatning biror komponentidan foydalanganda o'zgarish xavfi bo'lgan tabiiy yodgorliklarni saqlab qolish maqsadga muvofiq. Aslida tabiatni qo'riqlash-uni tabiiy holda saqlab qolishgina bo'lmay, uning ilmiy, ma'rifiy, estetik imkoniyatlarini asoslab keng jamoatchilik e'tiborini ularga jalb etish ham bo'lishi lozim.

Yuqorida qayd etganimizdek, Qashqadaryo viloyatining tabiiy geografik sharoiti shu darajada yaxshi jihatlar bilan xarakterlanadiki, O'rta Osiyo uchun tipik bo'lgan qumloq, toshloq, gilli va sho'rhok cho'l

landshaftlari bilan go'yoki bu yerda bo'lishi mumkin bo'lmagan tog' muzliklari-yu sernam o'lkalar uchun xos bo'lgan qalin tog' o'rmonli maydonlar, uzun yer osti bo'shliqlari-karst g'orlari, o'lkan asarari uyalari qiyofasidagi karst o'yiqlari maydonlari mavjud. Ana shu landshaft va yer usti relyefining boshqa joylarda uchrashi amrihol noyob obyektlarning aksariyati tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinib, ilmiy va ma'rifiy jihatdan o'rganilmoqda. Viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining ro'yxatida o'ndan oshiq landshaft, 6 ta madaniy landshaft, 6 ta botanik, 9 ta geologik paleontologik, 7 ta sharshara, 12 karst g'ori va 30 ga yaqin buloq-jami 80 ga yaqin obyektlar ko'rsatilgan. Bu ro'yxatga olinmay qolgan e'tiborli tabiiy obyektlar ham talaygina-tor dara tangi va cho'llar sho'rhok va sho'r ko'llar ham ekoturizm obyekti sifatida tabiat yodgorligi deb tan olinishi zarur.

Davlat tabiat yodgorligi bo'lgan tabiiy obyektlarning batafsil tav'rifi tuzilib, ularning yodgorlik sifatida saqlanishi davr talabi. To'g'risini aytganda bu ma'suliyatli vazifa chuqur ilmiy muhofaza aniq daliliy ma'lumotlarni talab qiladi. Tabiat bilan jamiyatni bir butun tizim deb qaraydigan tabiatshunos olimlar mintaqamizning o'ziga xos xilma-xilligi va noyobligini ta'riflash va targ'ib qilishga ma'suldirlar.

Har bir joy o'ziga xos geologik taraqqiyot tarixi vazmining mineralogik-yetrografik tarkibiy tuzilishi bilan ta'riflanadi. Ayni shu jihatlar bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan yer yuzasining qiyofasida nomoyon bo'lgan diqqatni talab etuvchi tabiiy obyektlar geologik-geomorfologik yodgorliklar hisoblanadi. Zero, bunday tabiiy yodgorliklar mavjud hudud yoki uchastkaning bugungi ko'rinishi. Mazkur joy geologik o'tmishida yuz bergan hodisa va jarayonlardan ko'pincha aniq guvohlik



beradi. Qashqadaryo va Surxondaryoning tog'li mintaqasi hisobalanadigan Hisor tizma tog'larining janubiy-g'arbiy tarmoqlarida juda chuqur va tor qopchig'ay-daralar nihoyatda ko'p. Oqsuvning Hisorak va G'ilon qishloqlari oralig'idagi bo'lagi Qorasuv (Oqsuvning o'ng irmog'i) darasi, Yakkabog'daryoning zarmas darasi, Guldarasoy va Langar daryoning tangilari Qashqadaryo tog'li hududi relyefining eng e'tiborni tortuvchi obyektlaridir. Hisor tog'larining bu daralari eroziyasi bilan tog' jinslarining eruvchanlik xususiyati-karst jarayonlarining birgalikdagi faoliyati natijasida vujudga kelgan. Gap shundaki, paleozoy erasining devon va mezazoy erasining yura davrlarida hozirgi Hisor tog'lari qad rostlab turgan hudud o'rtacha sayozlikdagi dengiz rejimiga ega bo'lgan. Bunday iliq suvli havzalarda umumtqasiz jonzotlar xususan molyuskalar nihoyatda keng rivojlanganki, ularning toshqotgan qoldiqlaridan ohaktosh qatlamlari hosil bo'lgan.

## 2.4. Jonsiz tabiat yodgorliklari va ularning turlari

Jonsiz tabiat yodgorliklari respublikamiz xususan viloyatimiz hududida juda ko'p. Ularni geologik-geomorfologik, mineralogik, gidrologik, gidrogeologik va ijtimoiy geografik turlarga bo'linishi mumkin. Xalq xo'jaligi uchun tabiiy resurslardan tobora ko'proq foydalanish natijasida tabiatga jiddiy zarar yetkazish mumkin. Shuning uchun tabiatni muayyan xususiyatini o'zida aks ettirgan obyektlarni jonsiz tabiat yodgorliklari sifatida o'rganish nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Jonsiz tabiat yodgorliklari geologik ochilmalar alohida ahamiyatga molik relyef shakllari, ayniqsa, qoyalarning nurash jarayoniga uchrab nurashga bardoshli xislari sifatida qolib yotgan ma'lum bir hayvon yoki odam shakliga o'xshash qoyalar oqar suvlarning faoliyatidan hosil bo'lgan tog' daraxtining ayrim bo'laklari karst g'orlari, buloqlar, sharsharalar, toshqotgan organizmlarning yer yuzasiga chiqib qolgan qismlari sho'rhok botiqlar, koriz qadimgi anhorlarning saqlanib qolgan bo'laklari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi bunday ilmiy, ma'rifiy, tarixiy, nafosat xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan tabiatning jonsiz yodgorliklarini ro'yxatga olish va ularning qisqacha ta'rifini tuzish uchun namunaviy tartibini ishlab chiqqan.

“Jonsiz tabiat obyektining pasporti deb ataladi.

1. Obyektning nomi (tarixiy, mahalliy va hozirgi vaqtdagi nomi).
2. Joylashgan o'rni (eng yaqin aholi punkti, daryo, tog' va boshqa obyektning qaysi tomonda joylashganligi tuman fuqarolar yig'ini kengashi (qishloq kengashi) va qaysi qishloq hududiga tegishliligi.

3. Jonsiz tabiat yodgorliklarining o'rganish darajasi matbuot, kitoblar jamg'arma materiallarda uning tilga olinganligi kim tomonidan qachon bu obyektning o'rganilganligi haqida ma'lumot.

4. Obyektning ta'rifi (hozirgi holati, diqqatga sazovor xususiyatlari, ilmiy va xalq xo'jalikdagi ahamiyati). Obyektning plani tuzilishi o'lchamlari haqidagi ma'lumotlar.

5. Tabiat yodgorlikining qay holatda saqlanganligi, uning holatiga ta'sir etuvchi omillar ko'rsatiladi.

6. Obyektga ilmiy, amaliy, ma'rifiy, maqsadlarga foydalanishga qaratilgan shakllari.

7. Obyektni muhofaza qilish chora tadbirlari.

8. Tabiat yodgorliklarining o'rganish va qo'riqlash tadbirlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish haqidagi ma'lumotlar.

9. O'rganish va tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar respublika yoki viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasida qayd qilingan raqami noyob qo'llanishga muhtoj, jonsiz tabiat yodgorliklarini pasportlashtirishning bu tartibi barcha obyektlar uchun shart bo'lib, tabiat yodgorligini o'rganish, ta'riflash uning o'lchamlari haqidagi doimiy ma'lumotlar o'rganish darajasi obyektning buzilishiga xavf soladigan omillar, hamda obyektni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar tizimi, xulas qo'riqlanadigan obyektlar haqidagi tegishli ma'lumotlar mujassamlashgan. "Tabiat yodgorligi" atamasi birinchi marta mashhur nemis tabiatshunos olimi A.Gumbolt tomonidan taklif etilgan. Barcha tabiatshunoslik fanlarida bu ibora bilan tabiiy muhitning shu atrof tabiiy sharoiti uchun andoza bo'lib xizmat qiladigan va o'zining favqulodda noyob xususiyati tufayli davlat tomonidan qo'riqlanishga loyiq bo'lgan

obyektlar tushuniladi. Tabiatda diqqatga sazovor bo'lgan har qanday tabiiy obyekt ham qo'riqlanadigan tabiat yodgorligi bo'lavermaydi. Atrof muhitning hozirgi va biologik o'tmishidagi rivojlanishi haqida kelajak uchun axborot berish xususiyatiga ega bo'lgan obyektlarigina tabiat yodgorligi deb e'lon qilinishi mumkin.

Qashqadaryo hududida Qamashi tumanining tog'li Maydanak tog'lari yaqinidagi Mingchuqur karstli uchastkasi gipsli yotqiziqlar bilan yotqiziqlardan tuzilgan tog'li landshaftning noyob namunasi sifatida geomorfologik tabiat yodgorligi deb e'lon qilingan. Qariyb 1500 dan oshiq karst botiqlari bo'lgan g'orlar mavjud bo'lgan. Dengiz sathidan 2200-2400 m balandlikdagi qalin archa o'rmonlari bilan qoplangan tog' o'rmonlari landshafti ichida o'ziga xos karst jarayonlarining yo'nalishini ko'rsatuvchi Mingchuqur tabiat yodgorligi sifatida ahamiyatlidir. Chunki uning o'tmish geologik davrining ekzogen jarayonlari, hozirgi jarayonlar va hozirgi landshaft haqidagi axborot tashish xususiyati Mingchuqurni tabiat yodgorligi deyishga loyiq. Ayni paytda yaylov sifatida foydalanilayotgan bu noyob uchastka tabiiy jihatdan o'zgarish xavfi ham mavjudligi uchun tabiat yodgorligi deb e'lon qilingan.

Garchi Qashqadaryo hududida bo'lmasa ham Surxondaryoning viloyatimizda tutash tog'li qismida joylashgan tarixiy va geografik ahamiyatga jonli jonsiz tabiat yodgorliklaridan biri mashhur "Temur Darvozasidir. Bu noyob geomorfologik-geologik tabiat yodgorligi haqida Amir Temur saroyiga Ispaniya elchisi bo'lib kelgan Puyu Gonzalis Klavixo bundan 600 yil oldin o'z yo'lnomalarida yozib qoldirgan.

O'tgan asrda Turkiston geologiya va geografiyasini chuqur o'rgangan va Turkiston nomli ko'p ilmiy asar yozgan rus olimi I.V.Mushketov "Temur Darvoza" darasiga shunday ta'rif beradi. "Temur Darvoza" juda tor, uning uchun eni o'ni sayin (21 m) ga yetar – yetmas, ba'zan bundan ham tor. Tagi deyarli silliq tekis mayda donali shag'al va qum bilan qoplanganki, uni tappa – tayyor tosh yo'l deyish mumkin. Temur Darvozaning yon bag'irlari juda tik, ushbu darvozaning balandligi 500 fut (150 m) Tik va baland, buning ustiga arzimas kenglikka ega bo'lgan bu tosh tog' qoyalar orasidagi yoriqqa o'xshaydi. Endilikda tabiiy va tarixiy ahamiyatga moyil suvsiz tog'dagi tog' darasi Surxondaryo tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan tabiiy yodgorligi deb e'lon qilingan. Qashqadaryo bilan Surxondaryo viloyatlarini bir – biriga bog'laydigan yo'lga yaqin joylashgan. Temur Darvoza Oqrabot davonidan kattta asfalt yo'l bilan borishda o'ng tomonda joylashganligi ko'rsatib qo'yilgan. Shunda ko'p voqealarning shohidi bo'lgan. Ko'plab afsona va rivoyatlar boy bu Temur Darvoza Janubiy O'zbekistonni tadqiq qilgan olimlarning asarlarida ta'riflab o'tilgan bu o'lka geologiya va geomorfologiyasi tekshirib ko'plab ilmiy asarlar yozgan O'zbekiston Milliy Universiteti prfessori O.Y.Posloveskaya o'zining "Janubiy O'zbekiston tog'larida" nomli kitobida ham temir darvoza va uning tekshirilishi tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Boymun tumani hududidagi temir darvoza ta'rifini keltirishimizdan maqsad Hisor tog'lari qirrasidan boshlanuvchi Qashqadaryo va Surxondaryoning irmoqlari shu dara kabi ayrim qismlarda oqib o'tadi. Daryolarning tez oqishi uning chuqurlama erroziyasini vujudga keltirib, daryo faqat o'z oqimi uchun yurak ochganligida ularning yuqori oqimida shunday dara hosil qilgan. Janubiy

O'zbekiston tog'laridagi daralar asosan geologik o'tmishning yura davriga mansub adabiyotlarda Hisor svetasideb yuritiladigan juda qalin ohaktosh komplekslarida shakllangan. Bunday ohaktoshlarda yonbag'irlari tik chuqur daralarning hosil bo'lishi daryolarning eroziya faoliyatiga ohaktoshlarning suvda eruvchanlik xususiyati bilan bog'liq karstga chalinish jarayoni ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday noyob daralar haqida XX asrning 30 – yillarida Hisor tog'larining geologiyasini o'rgangan tadqiqotchi Oqsuv, Langar, Yakkabog' daryo tog'li qismlaridagi daralarni shunday ta'riflaydi uzoqdan qaraganda uvsiz yassi tog'lar orasida yashiringan, bir necha yuz metr chuqurlikdagi bu daralar tog'lar bag'rida hech narsa yo'qdek tuyiladi. Ularning mavjudligi va daryolarni chuqurlashtiruvchi erroziya faoliyati to'xtovsiz davom etayotganligi daryo havzasini tirsaksimon burilishida onda – sonda ko'rinib qoladigan yuqori qismlarigina ularning borligidan guvohlik beradi." Ayni shu satrlar Qashqadaryoning barcha chap irmoqlari va Surxondaryoning o'ng irmoqlari daralari uchun tegishlidir.

Oqsuv daryosining unga chap tomonidan kelib qo'yiladigan Tamshush irmog'i bilan, Gilon qishlog'i orasidagi bo'lagi tor va chuqur dara hosil qilganligi uchun jonsiz tabiat yodgorligi bo'lishi mumkin. Bu yerda daraning kengligi 150 – 50 metrgacha torayadi. Tik devor hosil qilgan yon bag'rlar balandligi 500 m gacha yetadi bu jihatdan Oqsuvning bu darasi AQSH ning mashhur "Potta Komon" qo'riqxonasiga o'lchamlari jihatdan undan yumushsado qiyofasi va chuqurligi jihatdan o'xshab ketadi. Poleozoy erasining davrlariga mansub ohaktoshlarda shakllangan Oqsuv darasi tabiatni ming yil mobaynida yaratgan yodgorligi sifptida saqlanishi lozim. Nihoyatda xushmanzara bu daryo qo'riqxonasi tarkibida

tabiatning dahlsiz obykti sifatida qo'riqlanadi. Xontaxti va Quriq tog'laridan boshlanib, avval janubga keyin janubi – g'arbga va g'arbga tomon oqadigan, asli Qashqadaryoning chap irmog'i lekin hozir unga borib yetmaydigan, sug'orishga sarf bo'ladigan Langar daryosining bir necha bo'lagi tabiat yodgorligi sifatida qo'riqlanishga muhtoj. Daryoning yuqori oqimida Boshdara bilan O'rtadara qishloqlari orasidagi bo'lagi Langar qishlog'i bilan Qizilsoy qishlog'i oralig'idagi bo'lagi tik devrli chuqur bo'lganligi uchun ularni relefnng noyob shakli sifatida bo'lganligi uchun qo'riqlanishi lozim. Shu daryoning Qizilsoy qishlog'ida kelib qo'shiladigan Oqsuv daryosi hm tipik bo'lganligidan jonsiz tabiat yodgorligi bo'lishi mumkin. Shu tahlid chuqur va kichik O'radaryoning o'ngdan kelib qo'shiladigan Kuga irmog'i yuqori oqimida Qoplondara deb ataladigan bo'lagi ham tabiat yodgorligi bo'lishiga arziydi. Umuman Qashqadaryo tog'li qismida – tabiatning turli jarayonlari natijasida shakllangan xilma – xil relef shakllari mavjudki, ularni tabiat yodgorlari sifatida ro'yxatga olish va o'rganish ilmiy ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Oqsuv havzasida uning o'ng irmog'i bo'lgan hozirgi vaqtda to'g'ridan – to'g'ri Hisorak suv omboriga kelib qo'shiladigan Qorasuvning darasi ham tabiat yodgorligi deb qo'riqlanmoqda. Sumsar – Shertog' tarmoqlaridan boshlanadigan Qorasuv darasi tiktonik siniq bo'ylab oqish davomida devon davriga mansub ohaktosh yotqiziqlariniyemirib eni 40 – 50 metr chuqurligi ham shuncha bo'lgan tik devor orqali oqadi. Qorasuv darasida maymunjon, jilon – jiyda va boshqa butalardan iborat o'simlik tarkibli butazorlar ham qo'riqlanadi.

Respublikamizda eng mashhur va eng uzun karst g'ori 860 metr uzunlikdagi Amir Temur Ko'ragoniy (yoki Toshqo'rg'on Yakkabog')

g'oridir. Dengiz sathidan 2957 m balandlikda Qalasoy daryosining o'rta oqimida tik daryo devorining tagidan boshlanadigan bu g'or shu ish ilmiy rahbari A. Mamatov tomonidan 1964- yilda batafil o'rganilgan. Hozir Hisor qo'riqxonasi tarkibida ko'plab mahalliy va chet el turistlari kelib ketadigan Amir Temurningqadamjosi deb tan olingan bu g'or haqida ikki qismdan iborat telefilm yaratilgan. Hisor ohak toshlarida shakllangan bu g'or ikki qismli ikki og'izli, birinchi qismini otxona deb yuritiladiki, uning uzunligi 190 metrdan 670 metr uzunlikdagi asosiy g'orning og'zi otxonaning shimoli – sharqidagi og'zidan uncha uzoq bo'lmagan, 20 metrlar chamasi masofada joylashgan. Qachonlardir bu ikki g'or yaxlit bir gorizontol bo'shliq bo'lganki, Qalasoy daryosi uni yemirishi natijasida yo'lakning bir tomoni qulab tushib ikki g'orga aylangan. Har ikki g'orning og'zi daryoga qaragan qiya qismidan archa va tosh bo'laklari terilib yaxlit supa maydoncha bilan birlashtirilgan. Rivoyatlarga ko'ra bunda 1355 – 1365 yillarda Amir Temur yashagan va o'z yaqinlari bilan harbiy mashqlar qilgan. Shuning uchun g'orning nomi bu buyuk jahongirning nomi bilan yuritiladi. Och – ko'k rangdagi ohaktoshlardan tosh yotqiziqlari orasida shakllangan g'orning og'zi Qalasoy sathidan 170 metr va g'ordan balandda tik devoridan balandda 200 metr. G'or kengayib, goh torayib kengaygan joylarda uzunchoq zal deb ataluvchi uyga o'xshash kenglik hosil qiladi. Uzunchoq zaldan so'ng g'or og'zidan 150 m lar masofada hor bo'shlig'i tugab odam zo'rg'a sig'adigan yo'lak boshlanadi. Yo'lak goh kegayib, goh torayib, g'or og'zidan 450 metrlar masofada ko'lli zal bilan tugaydi. Uzunligi 81 m, kengligi 25 – 37 m bo'lgan bu zalning janubi – g'arbiy qismida chuqurligi 2 – 2,5 metr bo'lgan yer osti ko'li joylashgan. G'orning shiplaridan ayrim joylarda 1,5 – 2 metrgacha storotitlar g'or tagida va



uning yonidagi tokchalarda storotitlar va boshqa tomchi shakllar ko'plab uchraydigan bu noyob karst g'ori mineral hosil bo'lish jarayonlarini o'rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Langar qishlog'idan shimolda quruq tog'larni yonbag'rida qishloq markazidan 4 km masofada 35 km uzunlikdagi Havorkamon g'ori joylashgan. Yura ohaktoshlardan hosil bo'lgan bu g'orda ham mingdan quvur va quvurga shaklidagi storotitlar osilib turibdi. Qamashi tumanining Langar qishlog'i tutash tog'larda katta langar g'ori bor. Umumiy uzunligi 36 metr bo'lgan g'or, yura gips qatlarida shakllangan dengiz sathidan 1160 metr balandlikda. G'orga kirish joyida kichik Langar g'ori hosil bo'lgan. Bu g'orning uzunligi 19 metr.

Langar qishlog'idan janubi – g'arbda 12 km lar masofada Gul buloq g'ori o'rganilgan. Yuqori Bo'r davri zich ohaktoshlarida shakllangan bu g'or ham xirsimon relefli Langar tog'larida joylashganligidan tabiat yodgorligi deb e'lon qilinishi lozim. Oq jar (karst) g'ori Langar qishlog'idan to'g'ri janubga tomon 5 km masofada paleogen davrining Buxoro qatlamlari ohaktoshlarida hosil bo'lgan dengiz sathidan 1242 m balandlikda joylashgan bu g'orning umumiy uzunligi 22 metr bo'lib, g'or shipi va devorlaridan oqma shakllar ya'ni storotitlar osilib turgan bu g'or ham tabiat yodgorligi bo'lishga loyiq. Pachkamar suv ombori to'g'onidan 4 km lar shimoli – g'arbdan dengiz sathidan 710 m lar balandlikda Pachkamar g'ori joylashgan. Umumiy uzunligi 27 m bo'lgan bu g'or yoriqsimon yo'laklardan iborat bo'lgan karst g'ori ham poleolit davri Buxoro asri ohak toshlaridan shakllangan. Dehqonobod tumanining katta O'radaryo oralig'ida uzunligi 39 m bo'lgan Oqtosh g'ori shu nomli qishloqdan 1 km uzoqlikda, uzunligi 18 m bo'lgan Seguzar qishlog'idan 5

km shimoli – sharqda Morxona g'ori Boshchorboq qishlog'ining Oboxshon mahallasida 14 km shimolda Oboxshon g'ori joylashgan. Bu g'orning umumiy uzunligi 33 metrni tashkil etadi. Yakkabog' daryosining yuqori oqimida Toshqo'rg'on qishlog'idan 5 km lar sharqda 68 m uzunlikda Gul g'ori Amir Temur g'ori kabi Yura ohaktoshlarida shakllangan. Umumiy uzunligi 68 metr bo'lgan mansub ikki og'izli g'ori yura gips yotqiziqlarida shakllangan. Shunday qilib viloyatning Hisor g'arbiy tarmoqlari doirasidagi Yakkabog', Qamashi, G'uzor, Dehqonobod tumanlarida yuzaga yaqin karst g'orlari o'rganilganki, bular ichida tabiat yodgorligi deb e'lon qilishda loyiq obyektlarni yuqorida sanab o'tdik. Hisor va uni Zarafshon tizmasi bilan qo'shib turuvchi tog'lari paleozoy davrining silur, devon, toshko'mir paleozoy erasining yotqiziqlaridan tarkib topgan. Bularda unga yaqin karst g'orlari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Bu karst g'orlari azaldan o'zining sirli olami, sirliligi bilan ko'pgina afsona va rivoyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Aslida ular yer osti suvlarining gorizontal oqim hosil qilib, tog' jinslarini eritish tufayli shakllangan shuning uchun geologik jarayonlar mineral hosil bo'lish jarayonlari reliefning o'tmish yodgorligi kabi ilmiy jihatdan ahamiyatligidan ularni qo'riqlash zarur. Shu bilan birga g'or turisti, g'or sporti, g'orlarda davolash arxeologik va boshqa jihatlardan ham ularni saqlash avlodlarga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, karst g'orlari o'zlarining ko'p funksiyalari ahamiyati sababidan jonsiz tabiat yodgorliklarining yetakchilari deb hisoblanadi.

O'z ishimizda karst g'orlarini ta'riflashga asosiy e'tibor berishimizning boisi ham shunda. Buloq, quduq, sardoba, korez, ko'l, sho'rxoklik kabi suv bilan bog'lik bo'lgan geografik landshaftning

obyektlari jonsiz tabiat yodgorliklari muayyan joy, tabiiy landshaftining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot o'zida mujassam etganligi uchun va atrofidagi boshqa obyektlardan noyobligi bilan ajralib turadi.

## **2.5. Tabiat yodgorliklarini ilmiy, ma'rifiy va ekoturistik ahamiyati.**

Aslida o'zgarish xavfi bo'lgan landshaft maydonlari va tabiiy obyektlar har bir o'zlashtirilayotgan hududda mavjud. Bunday landshaft maydonlari va geografik obyektlarning o'rganish ilmiy, ma'rifiy, tarixiy – madaniy va ma'naviy ahamiyatini asoslash ancha sayi harakat qilinadigan ishlardan biri. Bunday ishlar jumlasiga o'z o'lkasining tabiatiga mehr talab qiladigan ish. Obyektning davlat tabiat yodgorligi sifatidagi ahamiyati shu hududda tabiatdan foydalanilayotgan kishilar anglab yetishi zarur. Bu esa bugungi manfaatni ko'zlab ish ko'rayotganlar uchun jun (oddiy) ish emas. Shu asnoda alohida tabiat obyektlari, ayrim joylarni qo'riqlash borasidagi xalq orasida tarkib topgan an'ana va udumlarni eslatib o'tish lozim. Qashqadaryo viloyati hududida ko'p uchraydigan buloq, ko'l, g'or, changalzorlar, sho'rxoklar, ayrim olingan chinor, qayrag'och, tut, pista va boshqa shular singari tabiat komponentlariga sig'inish ularni ziyoratgohlar to'hrisida ezozlanishi --- tabiatga uning ayrim diqqatga sazovor komponentlarini asrashni o'ziga xos jihatlari deb qarash mumkin. “ Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risidagi Qonunda” . . . diniy maqsadlarda foydalaniladigan tabiat yodgorliklari diniy tashkilotlarga yoki jismoniy shaxslarga bunday yodgorliklarni obodonlashtirish yoki asrash ishlarini amalga oshirish sharti bilan foydalanishga yoki ijaraga berilishi mumkin” deb ta'kidlangan. Shunday ekan tarkibida tabiat

yodgorliklari bo'lgan landshaft maydonlari, g'orlar, qiyalar, geologik ochilma, dara, buloqlar, ko'llar va boshqa tabiiy obyektlarning buzilishidan, o'zgarishidan saqlash avlodlarga asrab qolish uchun muhofaza etish va o'rganish tabiatning muhofaza qilish tizimida alohida sohalardan biridir. Bunday ishlar Rossiyada XX asrning boshlaridanoq alohida masala sifatida ko'tarilgan kelajak avlodlar oldidagi ma'suliyatni anglab yetgan ziyolilar, ilg'or fikrli fan namoyondalari taklifi bilan 1921 – yil 16 – sentabrda Rossiya hukumatini tabiat yodgorliklarini asrash haqida maxsus dekret chiqarishga erishganlar. “Ushbu hujjatda ayrim olingan tabiat bo'laklari tabiiy obyektlar (hayvonlar o'simlik), geologik ochilmalar g'orlar va boshqa shunga o'xshashlar) alohida ilmiy, madaniy, tarixiy, qiymatli, asrashga muhtoj obyektlar tabiatning dahlsiz yodgorliklari deb e'lon qilinadi.” Deb ko'rsatilgan. Tabiat yodgorliklari ilmiy, amaliy, tarixiy, madaniy, ma'rifiy, turistik – sayyohat va boshqa xususiyatlari bilan alohida kasb etadigan tabiiy obyektlardir. Ular insonning xo'jalik faoliyati davomida muayyan o'zgarishlarga uchrashi mumkin shu bois ularning aniqlash ro'yxatga olish, ilmiy geografik ta'rifini tuzish kabi ishlarni bajarish talab etiladi. Tabiat yodgorligining ilmiy qiymati deganda ko'l, botqoq, sho'rxokning gidrologik obyekt tarzidagi yer osti suvlarining paydo bo'lishi harakati, gidrofizik va gidrokiyoviy xossalarini aniqlash bilan bog'liq masalalar shuningdek, muayyan hududning yer osti suvlari shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda tappa – tayyor laboratoriya vazifasini o'tashi nazarda tutiladi. Yoki qoyalar, daralar, g'orlar, geologik ochilmalar va boshqa geologik geomorfologik obyektlar qanday jarayonlar natijasida geologik davrning qachon, qaysi davrda hosil bo'lganligi aniqlanib ular foydali qazilma darakchisi muayyan geologik jarayonlar

mahsuli mineral hosil bo'lish jarayonlarning hosilasi ekanligi kabi jihatlar tushuniladi.

Madaniy ma'rifiy ahamiyati deganda ko'pincha ularning ekskursiya va tomoshabob ekanligi haqidagi jihatlari tushuniladi. Har bir davlat tabiat yodgorligi deb qo'riqlanayotgan tabiiy obyekt o'zi haqida juda ko'plab ma'lumotlarni beradi. Davlat tabiat yodgorligining o'ziga xosligi ya'ni boshqalardan tafovut qilishida namoyon bo'ladi. Har qanday davlat tabiat yodgorligi bo'lishga loyiq tabiiy geografik obyekt biron bir jihati o'lchami qiyofasi kabi xususiyatlar bilan farq qiladi. Ayni shu farqlar davlat tabiat yodgorligining axboriy ya'ni hududning geologik rivojlanishi hozirgi tabiiy geografik xususiyati haqida ma'lumot beradi. Demak, tabiat yodgorligi bo'lgan obyekt o'zining tabiiy xususiyatlari haqida ma'lumotlarni berishi va atrof muhitning hozirgi holati haqida axborotlar berishi bilan ahamiyatlidir. O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan atrofdagi shunday obyektlardan tafovut qiluvchi tabiiy hududiy jism bo'lgan obyekt o'zi tarkibida joylashgan hududning tabiiy iivojlanish bo'yicha ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Chunki o'zi haqida ham o'zi mavjud bo'lgan hududning tabiiy geografiyasi va geologiyasi bo'yicha umumlashma material bera oladi. Masalan janubi g'arbiy Hisor tog'larining doirasidagi davlat tabiat yodgorligi sifatida muhofaza qilinayotgan Langar daryosi havzasidagi katta Langar, Havar Kalon, Gul buloq katta O'radaryo havzasidagi Pachkamar, Oqjor kichik O'radaryo havzasidagi Oqtosh, Oboxshon, Morxona, O'lmas, Tuya yaylov kabi karst g'orlari o'zlari mavjud bo'lgan hududlarning geologiyasi yer osti suvlari joyning dengiz sathidan balandligi, joy zaminining qanday mineral va tog' jinlaridan tarkib topganligi haqida ancha to'liq ma'lumotlar beradi. Yanada aniqroq

qilib aytganda g'orlar mavjud bo'lgan tog'larning zamini yura davrida o'rtacha sayozlikdagi iliq dengiz bo'lganki, bunday dengiz sharoitida umrtqasiz dengiz organizmlari qoldiqlaridan ohaktosh qatlamlari hosil bo'lgan juda qalin ohaktoshlarni hisor sevetasi deb yuritiladiki janubiy O'zbekiston keng tarqalgan hisor sevetasi ohaktoshlarida kart g'orlari va chuqur tor tog' daralari shakllangan. Suvda kimyoviy jihatdan eriydigan ohaktosh qatlamlarida harakat qilgan yer osti suvlari gorizontol ravishda serkulyatsya qilgandan ular ohaktoshlarni eritib yer osti bo'shliqlari ya'ni gorizontol yo'nalishdagi g'orlarni g'osil qilgan. Suvda eriydigan ohaktosh dolamet, gips, angrid, galit, karnallit, selvenet kabi jinlarda ro'y beradigan geologik va kimyoviy jarayonlar karst deb yuritiladi. Katta Langar, O'lmas, Tuyayaylov kabi yuqorida aytilgan g'orlar gips angdrid qatlamlarida yer osti suvlarining ta'siridan shakllangan yura davrining oxirida janubiy g'arbiy hisorda tektonik harakatlar ro'y berib o'rtacha sayozlikdagi iliq dengiz bo'laklarga bo'linib hosil bo'lgan yopiq suv havzalarida suvda yaxshi eriydigan gips angdrid kabi kimyoviy cho'kindi jinlar hosil bo'lganki ular orasidagi qatlamlarda harakat qilgan suvlar ta'siridan gips angdridli karst g'orlari shakllangan demak davlat tabiat yodgorligi bo'lgan Hovar kalon, Oqtosh, Oboxshon, Molxona kabi g'orlar yuqori yura ohaktoshlarida mavjud bo'lgani uchun ular joylashgan ohaktoshlar o'rtacha sayozlikdagi iliq dengiz mahsulotlari bo'lgan yotqiziqlarining karst jarayoniga uchragani haqida ma'lumot beradi. Katta Langar, O'lmas, Tuya yaylov kabi g'orlar yuqori yurada ular mavjud bo'lgan hudud yopiq suv havzalari bo'lib, dengiz suvining quruq va issiq sharoitida bo'lganligi xususida axborot beradi.

G'or shiplaridan osilib turgan stalaktetlar, g'orlarda ro'y bergan jarayonlarning qancha vaqt davom etganligi haqida ma'lumot beradi.

Tabiiy obyektlarining davlat tabiat yodgorligi tarzida muhofaza qilinishining yana bir ilmiy ahamiyati o'zlari tarkibida bo'lgan geotizimlarning ya'ni landshaftlarning muvozanatini saqlashdagi roliga ifodalanadi. Chunki muayyan geotizimning bir buguni yoki komponenti sifatida bo'lgan. Tabiat yodgorligi Masalan : karst g'orlari yoki daryo daralari dahsiz obyektlar deb e'lon qilinmasa ularda tabiiy resurslaridan masalan kolleksiyalar sifatida tog' jinsi namunalarini olish qurilish material sifatida toshlardan foydalanish kabi ishlab chiqarish xarakterdagi ishlar tabiiy kompleksning muvozanati buzilishiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Shuni aytish kerakki tabiat yodgorliklaridan va uning biron- bir tabiiy komponentlaridan muayyan maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan Yakkabog' tumaniga qarashli Haydarbuloq, Chillabuloq, Tutak ota Qamashi tumanining tog'li qismlarida Ko'kbuloq, Gumbuloq, Oq bosh tov kabi mashhur chashmalarning suvi sug'orish va ichimlik sifatida foydalanilmoqda, davlat tabiat yodgorligi sifatida e'lon qilingan bunday obyektlardan xo'jalik maqsadlarda foydalanganda shu narsaga alohida e'tibor berish zarurki buloq suvlarining rejimiga va buloq joylashgan atrof-muhitning ekologik holatiga zarar yetmasligi lozim bunda suvga va buloqning geotizim sifatidagi atrof- muhit tabiiy muvozanatini saqlashdagi rolini aniq bilish talab etiladi. YA'ni buloq suvini ko'paytirish uchun buloqning ko'zini kengaytirish kelgusida suvning kamayishini nazarda tutish lozim. Shunday qilgan taqdirda tabiat yodgorligi bo'lgan obyektning o'ziga ham atrof-muhitga ham zarar yetmasligi mumkin.

“Tabiat yodgorligi” ilmiy tushunchasi mohiyatan notirik va jonli tabiatning diqqatga sazovor o’rganish va asrashga arziydigan noyob obyektlarga nisbatan qo’llaniladi. Bu ibora muayyan joy atrof muhitining barcha mavjud obyektlarini emas, o’zining bir yoki bir necha jihatlari bilan jamoatchilar e’tiborini jalb etuvchi kompleks yoki ular tarkibiga kirgan komponentlarning alohida ifodasi uchun ishlatiladi. Odatda tabiat yodgorligi bo’lishga loyiq obyekt yoki kompleks shu region tabiati uchun tipik, ko’pincha andoza bo’lib xizmat qilishi zarur. Zotan unda region tabiati taraqqiyot tarixining qanday ekanligini ko’rsatadigan qator jihatlar bo’lishi kerak. Bugungi tabiiy sharoitning qanday taraqqiy etganligi bo’yicha aniq va mumkin qadar ko’proq axborotlarni o’zida mujassam etgan, alohida noyoblik xususiyatiga ziyon yetish xavfi bo’lgan, agar u muhofazaga olinmasa, uning e’tiborini jalb etuvchi jihatlari putur yetish ehtimoli bo’lgan tabiiy obyekt va uchastkalar davlat tabiat yodgorliklari bo’la oladi.

Mamlakatimizda 2005 yilning dekabrda qabul qilingan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to’g’risida” gi Qonunda “Noyob, o’rinni to’ldirib bo’lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy obyektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat yodgorliklari hisoblanadi: Davlat tabiat yodgorliklaridagi turlarga bo’linadi: tabiiy suv obyektlarini saqlab qolishga mo’ljallangan gidrologik yodgorliklar: ayrim o’simliklarni saqlab qolish mo’ljallangan botanik yodgorliklar: tabiat yaratgan relief shakllarini saqlab qolish uchun mo’ljallangan geomorfologik yodgorliklar, geologik va minerologik hodisalarni saqlab qolish uchun mo’ljallangan geologik va mineralogik



yodgorliklar” deb tabiat yodgorliklarini huquqiy maqomi turlari va rejimi aniq belgilab berilgan.

Har bir kompleksning shakllanishida o'zida xos taraqqiyot qonuniyatlariga amal qiladi. Shu bilan birga inson tomonidan o'zlashtirilgan quruqlik va akval komplekslarga azaliy holda saqlangan obyektlar ham rivojlanish jarayoni bilan farq qiladi. Tabiiy komplekslarning tarkibini tashkil etgan komponentlar chuqur evolyutsiya boshlanishida muayyan zamon va makonda mavjud bo'lganligi uchun ham muhofaza tizimini tashkil etishda ularni ilmiy tasniflash talab qilinadi. Chunki uzoq geologik vaqt mobaynida shakllangan tabiiy kompleksning inson faoliyati davomida bir komponenti o'zgartirilsa, kompleks zanjirida ma'lum o'zgarish bo'ladi. Har bir muhofaza tizimiga kirgan obyekt o'z kompleksining tabiiy holatini ifoda etuvchi tayanch andoza nusxasidir. Ilmiy texnikaning muttasil jadal suratlar bilan taraqqiy etib borishi, sayyoramiz nufuzining ortib borishi jamiyat bilan tabiat munosabatlarida nomutanosiblik keltirib chiqaradi. Chunki tabiiy resurslardan foydalanish hajmi tobora ortib, kengayib boraveradi.

Tabiat yodgorliklari ilmiy- amaliy, tarixiy, madaniy, ma'rifiy, turistik va boshqa xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadigan tabiiy obyektlardir. Ular insonning xo'jalik faoliyati davomida muayyan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Shu bois, ularni aniqlash, ro'yxatga olish, ilmiy-geografik ta'rifini tuzish kabi ularni bajarish lozim. Tabiat yodgorligining ilmiy qiymati deganda ko'l yoki sho'rxokning gidrologik obyekt tarzidagi yer osti suvlarining paydo bo'lishi, harakati, gidrofizik va gidroximiyaviy xossalarini aniqlashda, muayyan hududning yer osti suvlari shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda tayyor laboratoriya

vazifasini o'tashi nazarda tutiladi yoki qoyalar, daralar, g'orlar, geologik ochilmalar va geologik geomorfologik obyektlar foydali qazilma darakchisi, muayyan geologik jarayonlar mahsuli, mineral hosil bo'lish jarayonlarining hosilasi ekanligi kabi jihatlar tushunilishi zarur. Toshqotgan o'simlik va hayvon qoldiqlari ham ayni fikrni bildirish mumkin. Ma'rifiy-madaniy ahamiyati, ko'pincha ekskursiya obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Qashqadaryo viloyatining tekislik, adir va tog'li mintaqalarida mavjud 200 ga yaqin jonsiz va tirik tabiat yodgorliklari ro'yxatga olingan.

## X U L O S A

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Qashqadaryo viloyati maydoni 28,6 ming kv.km. bo'lib, respublika maydonini 7% ini egallaydi. Maydoni jihatdan to'rtinchi o'rinda turadi. (Qoraqalpog'iston Respublikasi 166,6, Navoiy viloyati 111 ming, Buxoro viloyati 40 ming) Qashqadaryo viloyati Respublikamizning janubida joylashgan. Qashqadaryo nomli daryo havzasida joylashgan bo'lib, shimoliy kenglik  $37^{\circ} 58'$  bilan  $39^{\circ} 32'$  orasida  $67^{\circ} 42'$  bilan  $64^{\circ} 23'$  sharqiy uzunliklar orasida joylashgan. Viloyat 795 km uzunlikdagi chegaraga ega, shundan 405 km tog'lar, 390 km tekisliklar orqali o'tadiyu g'arbdan sharqqa 293 km, shimoldan janubga 195 km masofaga cho'zilgan. Qashqadaryo viloyati hududi qadim-qadimdan turli sayyoh, fotih, tadqiqotchi va olimu-fozillarning e'tiborida bo'lib kelgan. Bu hududda o'tkazilgan arxeologik tekshirishlar hamda tarixiy va adabiy manbalar bu fikrni isbotlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatining geografik o'rni bu hududda faqat O'zbekiston va O'rta Osiyoga xos tabiat majmualarinigina emas, balki Markaziy Osiyo, Sibir, Sharqiy Yevropa, Kavkazorti, Kichik Osiyo, O'rta dengiz bo'yi, Eron, Afg'oniston, Hindistonga xos o'simlik va hayvonot vakillarini tarqalishiga ham sabab bo'lgan.

Qashqadaryo havzasini nihoyatda rang-barang tabiiy sharoiti bilan ta'riflanadi. Qashqadaryo havzasi hududida O'rta Osiyo tabiatiga xos bo'lgan barcha landshaftlarni uchratish mumkin. Ko'chma qumtepali maydonlar, keng yastanib yotgan tekisliklar. Bu tekisliklar orasida ko'tarilib turgan tanho tog' qirlar, sho'rhok berk botiqlar, qadimiy

sug'orma yassi tekisliklar, adirlar, o'rtacha va balan yon bag'rlari archa o'rmoni bilan qoplangan tog'lar, tog' tizmalarini kesib o'tgan daryolarning chuqur daralari, mangu qor muzliklar bilan qoplangan baland tog'lar kabi bir-biri bilan ketma-ket almashinuvchi landshaft komplekslari viloyat tabiatining xilma-xil ekanligini ko'rsatadi. Qashqadaryo havzasida tabiat yodgorligi deb saqlanishga arzigulik obyektlar nihoyatda ko'p. Qoya, sharshara, g'or, buloq go'zal manzarali landshaft uchastkasi, geologik ochilma, inson tomonidan ajratilgan muayyan ma'rifiy ahamiyatli tabiylashib ketgan quduq, koriz sardoba, qadimgi konlarning bir bo'lagi, tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinishi mumkin.

Hisor tog'laridagi qator karst g'orlari tabiat yodgorliklari sifatida qo'riqlanmoqda. Qashqadaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra viloyat hududi doirasida 150 dan ortiq tabiat yodgorliklari ro'yxatga olingan ammo ularning soni bundan ham ko'proq, davlat tabiat yodgorligi maqomiga ega bo'lgan obyektlarning aksariyati to'liq tabiiy geografik tavsifga ega emas. Qashqadaryo havzasidagi noyob tabiat obyektlarini chuqur o'rganish va ularning batafsil ta'rifini ekoturizm obyektlari sifatida foydalanish muhim vazifalaridan biri, shuni aytish kerakki, janubiy O'zbekistonning Boysundagi tekislik tosh g'ori, Yakkabog' tog'laridagi Amir Temur g'orlari kabi mashhur tabiat yodgorligi juda qadimdan sayohatchilarning umuman aholining diqqat markazida bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining 2004-yilda qabul qilingan "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonunida "Yerning va suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik ilmiy, ma'rifiy, estetik, rekreatsiya va sanitariya sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik

maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq va qisman chiqarilgan uchastkalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar hisoblanadi. Tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish takror ko'paytirish va tiklash maqsadida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda muhofaza qilish va foydalanish rejimi o'rnatiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi deb ta'kidlangan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqsadi va rejimiga qarab:

1. Davlat qo'riqxonalarini;
2. Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarini;
3. Tabiat bog'lari;
4. Davlat tabiat yodgorliklari;
5. Ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar;
6. Muhofaza etiladigan landshaftlar;
7. Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar kabi yetti toifaga bo'linadi. Bular ichida davlat tabiat yodgorliklari o'zining noyobligi, kichik maydonni egallashi;

Tashkil etilishi va rejimini saqlash uchun katta mablag'lar talab etilmasligi bilan alohida ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" gi qonun O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2005-yil 137-son
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1992 yil 15-dekabr 243-son
4. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining qonuni "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 1993 yil 2-fevral 23-son
5. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T., "O'zbekiston"-1996
6. Zabelina N.M. Natsionalniy park. Moskva, 1987
7. Mamatov A. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida tabiat yodgorliklari. Zamonaviy geografianing regional muammolari, Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. 2010 yil Qarshi DU nashriyoti 33-36 betlar
8. Mamatov A.  
Abdullayev S.  
Xo'jamqulov B. Hisor davlat qo'riqxonasi O'rta Osiyo tog' tabiatining andozasi. Qarshi "Nasaf" 2010 y.
9. Mamatov A.  
Usmonova R. O'zbekistonda geografianing dolzarb muammolari. O'rtacha va past tog'larining orografiyasini Hisor tizmasi janubi-g'arbiy tarmoqlari misolida ta'riflash tajribasi. 2009-yil
10. Mamatov A. Ekologicheskiy audit po oxranyayemim

- Erdonov L. prirodnim pamyatnikam po territorii Yugo-Zapadnogo Gissara.
11. Mamatov A. Voprosi izucheniya prirodnix pamyatnikov Yugo-Zapadnix otrogov Gissarskogo xrebt. Fan texnika taraqqiyot va geografiya, 72-bet, 2007-yil
12. Mamatov A. Karstoviye pesheri v mezokaynozoyskix otlojeniyax Yakkabagskix gor Karst Uzbekistana. T., izd. «Nauka» 1969 g.
13. Mamatov A. Abdullayev S. K voprosu izucheniye i oxrani pamyatnikov prirodi Yujnogo Uzbekistana, sostoyaniye i perespektivi prirodo-polzovaniye v yujnix.
14. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. T., “O‘zbekiston” 1974 y.
15. Temyuxin G.F. Mamatqulov M.M. Batunskaya Nekotoriye aspekti ratsionalnogo ispolzovaniya i oxrani tejiyoy prirodi Uzbekistana. T., 1987 g.
16. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Geografiya o‘qituvchilar uchun qo‘llanma. Qarshi, 1994
17. Kashkadarinskoye oblast. T., 1959 g.
18. Erkayev A. Mamatov A. Yoziyev L. Raximov T. O‘zbekiston tabiati
19. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
20. [www.geogel.uz](http://www.geogel.uz)
21. [www.geog.uz](http://www.geog.uz)
22. [www.googel.uz](http://www.googel.uz)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3-6
<b>I BOB QASHQADARYO HAVZASINING TABIIY GEOGRAFIK SHAROITI VA TABIATDAN FOYDALANISH JARAYONIDA TABIIY KOMPLEKSLARNING O'ZGARISHI</b>	
I.1. Qashqadaryo havzasining tabiiy geografik tavsifi	7-15
I.2. Qashqadaryo havzasida tabiatdan foydalanishning hozirgi holati va tabiiy komplekslarning o'zgarishi .....	16-23
<b>II BOB QO'RIQLANADIGAN TABIIY HUDUDLARNING HUQUQIY MAQOMLARI VA ULAR TIZIMIDA TABIAT YODGORLIKLARI</b> .....	24
II.1. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish tarixidan .....	25-31
II.2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning huquqiy maqomlari va ularning turlari .....	32-38
II.3. Qashqadaryo havzasining tabiat yodgorliklari ularni tavsiflash hamda havzada geografik tarqalish xususiyatlari .....	39-49
II.4. Jonsiz tabiat yodgorliklari ularning turlari .....	50-58
II.5. Tabiat yodgorliklarini ilmiy, ma'rifiy va ekoturistik ahamiyati .....	59-66
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b> .....	67-69
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	70-71